



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz



MUNOSABAT



MUSTAQILLIK KAFOLATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida kuni kecha Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Qurolli Kuchlar tizimida olib borilayotgan islohotlar tahlil qilinib, mudofaa siyosatini mazmunan yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan e'lon qilingan ijtimoiy va strategik yangiliklar shunchaki navbatdagi o'zgarishlar emas, balki bugungi murakkab geosiyosiy

sharoitda O'zbekistonning o'z milliy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qat'iy javobidir, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini nafaqat mustahkamladi, balki uni mintaqadagi eng zamonaviy va jangovar armiyalardan biriga aylantirdi. Jahon tajribasi va zamonaviy tahlillardan kelib chiqib, ichki va tashqi xatarlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha yangi jangovar bo'linmalar tuzildi, qo'shinlar tarkibi optimallashtirildi. Bugungi urushlar "texnologiyalar jangi"ga aylanib borayotgani inobatga olinib, O'zbekiston armiyasida uchuvchisiz uchish apparatlari bo'linmalarining tashkil

etilishi strategik qadam bo'ldi. Bu nafaqat razvedka imkoniyatlarini kengaytiradi, balki nishonlarga yuqori aniqlikda zarba berish qobiliyatini ham oshiradi.

Armiyani raqamlashtirish jarayoni esa boshqaruv tizimining tezkorligini ta'minlamoqda. Raqamli texnologiyalar qo'shinlarni boshqarishda inson omilini kamaytirib, qaror qabul qilish vaqtini bir necha barobarga qisqartiradi.

Armiyani modernizatsiya qilish va zamonaviy qurollar bilan ta'minlashning yangi tizimi – mudofaa sanoati yanada rivojlantirildi, qo'shimcha korxonalar tashkil qilindi.

(Davomi 2-sahifada.) ➔

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyati yuzasidan video-selektor yig'ilishi o'tkazildi.

✓ 2026-yil 15-yanvardan O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirining birinchi bosqichi rasman boshlandi.

✓ O'zbekiston Milliy universiteti Matematika fakultetining 2-bosqich talabasi Abduvahob Ashirov "RUDNMATH OLYMP-2025" III xalqaro matematika olimpiadasida ishtirok etib, yakka tartibda 1-o'rinni egalladi.

✓ Markaziy bankning ma'lum qilishicha, 14-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda 1 gramm oltin quymasi narxi rekord darajaga – 1 million 852 ming so'mga yetdi.



JADIDSHUNOSLIK

BEHBUDIY YILI



O'zJOKU professori, filologiya fanlari doktori Halim SAIDOV bilan suhbat

– Domla, Mahmudxo'ja Behbudiyning 150 yilligi va bu sana bilan bog'liq voqealar Sizda qanday taassurot qoldirdi?

– Albatta, har bir o'zbekistonlik uchun xayrlashgan yilimiz o'z sohasida betakror o'tgan bo'lishi mumkinligini va ularning

fikrlarini hurmat qilgan holda ta'kidlab aytamanki, 2025-yil kamina uchun betakror vatandoshimiz, xalqimiz donishmandlaridan biri sifatida tarixga kirgan Mahmudxo'ja Behbudiyning bobomizning yili bo'ldi.

(Davomi 3-sahifada.) ➔



AKADEMIK AZIZXON QAYUMOVNING 100 YILLIGI

Azizxon Qayumov O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Po'latjon Qayyumiy xonadonida 1926-yilning 19-yanvar kuni dunyoga kelgan. Bu ma'rifatparvar oiladan keyinchalik ikki mashhur adabiyotshunos yetishib chiqishi bejiz bo'lmagan. XX asr boshi Qo'qon shahrida yangi usuldagi maktablarning mohir muallimi, jadidona yangicha qarashli Po'latjon domla farzandlari tarbiyasiga maxsus e'tibor berar, oilada ilm-u adabiyot ruhi ustun turardi.



ILM AZIZ QILGAN ZOT

Keyinchalik "Xo'qand tarixi va uning adabiyoti", "Tazkirai Qayyumiy", "Tazkirat ush-shuaro" asarlarini yozgan domla o'lkashunos tarixchi va mumtoz adabiyotning katta bilimdoni sifatida ham mashhur edi. Ularning shajarasi esa mirzolariga borib, xonlik davrida ham ilm-ma'rifatli xonadon sifatida ma'lum bo'lgan.

O'quvchi Azizxon she'rga havasi tufayli O'zbekiston xalq shoiri Charxiyga shogird tushgan. Bu esa uning hayotidagi muhim burilishga zamin hozirladi. 1944-yilning bahor kunlaridan birida o'sha vaqtlardagi davlat arbobi Usmon Yusupov Qo'qonga boradi. O'z odaticha, qo'qonlik adabiyot va san'at ahlini chorlaydi. U Charxiy domlani ko'proq hurmat qilar va hofizlardan qo'shiq tinglashni xush ko'rardi.

(Davomi 4-sahifada.) ➔



SHU SONDA:

“SHU SAFDA MEN HAM BORMAN!”

(4-sahifada o'qing.) ➔



2026-YIL - MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

ULKAN SIYOSIY IRODA



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomasi mamlakatimizning yaqin va uzoq istiqboldagi taqdirini belgilab beradigan konseptual hujjat bo'ldi. Davlat rahbari o'z nutqida 2026-yilni "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilish zamirida ulkan siyosiy iroda va insonparvarlik falsafasi yotibdi. Bu Yangi O'zbekiston davlatchiligini barpo etishda "pastdan yuqoriga" tamoyilining amalda namoyon bo'lishidir. Mahalla endi islohotlarning "bosh operatori" va ijtimoiy adolatning haqiqiy ko'zgusiga aylandi.


(Davomi 2-sahifada.) ➔



ILM YO'LI

HAMMASI O'Z QO'LIMIZDA

Biologiya fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi To'rixon UZOQOVA bilan suhbat



– Ilm yo'li murakkab. Xotin-qizlarning umrini ilm-fanga bag'ishlashi esa katta jasorat. Quvonarlisi, yurtimizda bugun ana shunday jasorat sohibalari safi kengayib bormoqda. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?

– Ilm yo'lidan borganlar – eng baxtli insonlar, deb hisoblayman. Bir sulolada bitta olim bo'lsa ham, u butun qarindosh-urug', mahalla-ko'yga namuna bo'ladi, atrofidagi yoshlar qalbida ilmga muhabbat uyg'otadi. Endi har bir oilada ilm kishisi bo'lsa, har bir ona ilmi bo'lsa, jamiyat qanday kamol topishini tasavvur qiling.

(Davomi 5-sahifada.) ➔



FAXRIYA



G'afur G'ULOM

YIGITLARGA

Yigitlar xalqlarning maqtovi-ko'rki, Naslning javhari, davlat tayanchi, Yurtning obodligi, to'ylar sababi, Elning gurkirashi, fayzu quvonchi...

Yigit omon bo'lsa, xavf-u xatar yo'q, Qalqon bor: qal'a but, qo'rg'on salomat. Qizlar kulgusida avji daromad, Chollar uyqusida jannat, farog'at.

Yigitlik umrining bir ko'klamiga Bir butun zamonni alishsang arzir. Arzir, bo'z yigitning qadami uchun Zamonlar, ko'klamlar bo'lsa muntazir.

Bir yigit hijroni ba'zan otaning Bag'rini, do'stlarim, dog'-dog' o'rtar... Raso qomatingiz bizga asodir, Ufuring, bog'imiz bo'lsin muattar.

Siz, axir, o'limni yurtidan qochirib, Hayotni poyidor qilgan askarsiz. Siz, axir, ulug' yurt iqboli uchun Jon tikkan erlarsiz, zotsiz, nafarsiz.

Atomlar quvvati pok qalbingizda Va sizdan kutadi taqdirin jahon: Jahon, zamon, xalqlar, Vatan va davlat Sizga tayanadi, sizdir posbon!



ABADIYAT ORALAB...

BADIYAT DARG'ASI



ULKAN SIYOSIY IRODA

Boshlanishi 1-sahifada.

Insoniyat tarixida davlat va jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi modellar bisyor. O'zbek xalqining ko'p asrlilik an'analari mahalla shunchaki yashash joyi bo'lishidan tashqari, inson va jamiyatni bog'laydigan, odamlarning quvonch-u tashvishiga sherik bo'ladigan noyob institutsional tuzilmadir. Prezident Murojaatnomasida mahallaning islohotlar markaziga qo'yilishi millatning tarixiy ildizlariga qaytayotganiga yana bir dalildir. Bugungi kunda "Davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak", degan tamoyil mahalla kesimida o'zining amaliy ifodasini topgan. Endilikda islohotlar samarasi vazirliklarning hisobotlarida emas, balki mahalla ahlining kundalik hayotida, ularning dasturxonidagi to'kinlikda va ko'chalaridagi obodlikda aks etadi.

Murojaatnomaning eng diqqatga sazovor o'rinlaridan biri mahalla tizimining iqtisodiy asoslarini tubdan o'zgartirishga qaratilganidir. Dunyo tajribasida mahalliy boshqaruv organlarining muvaffaqiyati ularning moliyaviy mustaqilligi bilan o'lchanadi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab, qo'shilgan qiymat solig'ining bir qismining (hududlarda 20 foiz) to'g'ridan to'g'ri tuman byudjetida qoldirilishi – bu davlat moliya tizimidagi "detsentralizatsiya"ning eng yuqori nuqtasidir. Bu tizim mahalla raisi va hokim yordamchisini tadbirkorlikni rivojlantirishga "majbur" qiladi. Chunki endilikda mahallada ochilgan har bir yangi korxona to'lagan soliqning bir qismi o'sha mahallaning yo'lini asfalt qilishga yoki maktabini ta'mirlashga sarflanadi. Bu esa mahalla ahlini islohotlarning ijtimoiy iste'molchisidan faol sarmoyadoriga aylantiradi.

Murojaatnomada ta'kidlanganidek, davlat xaridlarining to'liq shaffoqlashishi iqtisodiyotning eng og'riqli nuqtalaridan biri bo'lgan korruptsiyaning oldini olishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Eng avvalo, manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yiladi. Komplayens nazorati orqali har bir shartnoma va tender jarayoni birlamchi bo'ldi. Ikkinchidan, byudjet mablag'lari tejalar. Ochiqlik sharoitida sun'iy ravishda oshirilgan narxlar va "tanish-bilishchilik" tizimi barham topadi. Uchinchidan, tadbirkorlik uchun teng imkoniyatlar yaratiladi. Endilikda davlat buyurtmalarini faqat sifatli xizmat ko'rsata oladigan va halol raqobatda yenggan subyektlar qo'lga kiritadi.

Mahalla byudjeti ustidan jamoatchilik nazorati o'rnatilishi bu davlat byudjetining eng quyi bo'g'inini to'g'ridan to'g'ri xalqqa topshirish demakdir. Bu islohotning ahamiyati turli jihatlarida namoyon bo'ladi. Xususan, mahalla ahli endi sust kuzatuvchi emas, balki o'z hududini rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan

"aksiyador"ga aylanadi. Muammolar manzilli hal etiladi. Mablag'lar bevosita mahalla yig'inlarida odamlarning real ehtiyojlaridan kelib chiqib yo'naltiriladi. Qayerdagi nazorat mahalliy aholi qo'lida bo'lsa, u yerda mablag'larni talon-toroj qilish imkoniyati minimal darajaga tushadi.

"Davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak", degan tamoyil endilikda amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlanmoqda. Ma'lumki, muhtaram Prezidentimiz fuqarolarda ijtimoiy mas'uliyat hissi kuchli bo'lishi kerakligini doimiy ta'kidlab keladi. Fuqarolarning byudjet jarayonlarida faol ishtirok etishi odamlarda "bu mening pulim, bu mening yurtim" degan daxldorlik hissinini uyg'otadi. Bu esa ijtimoiy mas'ullikdir. Bir so'z bilan aytganda, komplayens va jamoatchilik nazoratining kuchaytirilishi – korruptsiyaga qarshi kurashning eng samarali, demokratik yo'lidir. Bu tizim ishlashi uchun nafaqat davlat irodasi, balki har bir fuqaroning faol pozitsiyasi, huquqiy madaniyati va nazorat qilish ishtiyoqi suv va havodek zarur.

Murojaatnomada, shuningdek, global iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi sharoitida mahalla ekologik madaniyatning markazi bo'lishi shartligiga urg'u berildi. Har bir mahallada "yashil bog'"lar yaratilishi va sug'orish tizimlarining tiklanishi tabiiy muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Prezidentning Toshkent shahrida 150 kilometr yopiq drenaj tizimini barpo etish va kanallarni betonlash bo'yicha tashabbusi shaharlarda salqin mikroiklim yaratishga qaratilgan. Bu mahalla ahlining yashash sharoitini sifat jihatidan o'zgartiradi. Suvdan oqilona foydalanish madaniyati ham aynan mahalladan boshlanadi. 5,5 milliard dollarlik suv tejovchi texnologiyalar dasturi mahallalardagi dehqon va fermerlarning dunyoqarashini o'zgartiradi.

2026-yilda mahalla tizimida amalga oshiriladigan o'zgarishlar iqtisodiy ko'rsatkichlarni, jamiyatimizning ma'naviy-ruhiy muhitini ham tubdan isloh qiladi. Bu esa, biz o'zgarishlarni kutib yashamaydigan, balki ularni mahallamizda, o'z qo'limiz bilan yaratadigan davrga qadam qo'ydik, deganidir.

Prezidentimiz o'z Murojaatnomasida Mirzo Ulug'bek bobomizning yulduzlar xaritasi haqidagi o'xshatishni bejiz keltirmadi. Olti asr avval yulduzlarni zabt etgan millat farzandlari bugun yerdagi farovon hayot xaritasini chizmoqdalar. Zero, "Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!" Mahalla – mana shu birlikning markazi, islohotlarning "bosh operatori" va Yangi O'zbekistonning muzaffar kelajagidir.

Kamoliddin TO'RAYEV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti bo'lim boshlig'i

Mustabid tuzum illatlarini chuqur anglab yetgan adabiyotshunos, tanqidchi va tarjimon Asil aka Rashidov haqida gapirganda, har gal ichki bir taraddud sezaman. Bu gal ham shunday bo'ldi. Asil Rashidov tavalludining 95 yilligiga bag'ishlangan "E'tirof" kitobini o'qir ekanman, butun umrini milliy adabiyotimiz, ma'naviyatimiz rivojiga bag'ishlagan, chin ma'nodagi fidoyi, serqirra ijodkorning badiiy-ijodiy salohiyati va benazir shaxsiyati ko'z o'ngimda gavdalandi. Zamondoshlar xotiralari jamlangan ushbu kitob Inobatxon Rashidova tomonidan nashrga tayyorlangan ekan.

Asil akani aspirantlik chog'laridan bilaman. Chunki bir vaqtda aspiranturaga kirgandik. Ammo keyinchalik o'qishni vatanparvarlik va milliy kadrlar yetishtirishda tengi yo'q zabardast olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidenti Habib Abdullayev tavsiyasiga ko'ra, Leningrad davom ettirishimga to'g'ri keldi.

50-yillar oxiri edi. Sentyabr miyonasidan dekabr nihoyasigacha o'zbekistonlik barcha aspirantlar qatorida paxta terimida bo'lib, ilk bor Asil aka bilan yaqindan tanishganman. Siyosat shunaqa edi-da, o'quvchimisani, aspi-

rantmisan, akademikmisan – farqi yo'q, hamma dalaga haydalar, "oq oltin"ni so'nggi misqoligacha terib olish shart edi.

Balki, bugungi avlodda savol tug'ilar: "Asil akangiz respublikaning o'sha paytdagi rahbarlaridan biri bo'lmish Sharof Rashidovning tug'ishgan ukasi, jon-jigari bo'lsa, terimda nima qilib yuribdi?" U kishi Sharof Rashidovning kenja ukalaridan bo'lsa-da, hech qachon akasining mavqeini suiiste'mol qilishga urinmagan. Oilaviy an'anaga ko'ra, Sharof Rashidov Oliy Sovet Prezidiumi Raisi bo'lganda ham, birinchi kotiblik davrida ham oila a'zolarini, birinchi navbatda ukalarini o'z mehnati bilan yashashga o'rgatgan, bu masalada qattiqqo'l bo'lgan. Shunday tarbiya ko'rgan Asil aka ham o'z bilimiga, iqtidori va kuchiga ishongan, nimaga erishgan bo'lsa, halol mehnati sababli erishgan inson edi.

Shu o'rinda Sharof Rashidov bilan bog'liq bir voqeani aytmasam, insofdan bo'lmas. 1982-yilning kuzi. Surxondaryodagi Jarqo'ton bronza davri yodgorligida qazishmalar olib borayotgan edim. Bir kuni manzilgohga Sharof Rashidov tashrif buyurdi. Men 2-2,5 metr chamasini chuqurlikda qabila sardori-ning qabrini ochish bilan band edim. Rahbarlar kelganini sezmay qolibman. Qarasam, Sharof ota men tomon yaqinlashib, qo'l uzatyapti. Shogirdlarimga tezda narvon, suv va sochiq keltiringlar, dedim. Shu

payt Sharof Rashidovich: "Sizing qo'lingizga yuqqan ajdodlar gardi mening qo'limga ham yuqsini", deb meni bag'riga bosib, otalarcha manglayimdan o'pdi.

Asil aka ana shunday zotning jigari edi, o'zi ham yuksak fazilat ruhida tarbiya topgan shaxs, ijodiy mehnatda toblangan jasur jurnalist, bukilmas iroda sohibi, tanikli adabiyotshunos olim, mohir tarjimon bo'lib yetishdi.

Asil Rashidov portretidagi eng muhim chizgilardan biri buyuk adib Chingiz Aytmatov bilan bog'liq. O'zbekistonda Aytmatov ijodini chuqur biladigan, asarlarining barchasini o'qib, ularda ko'tarilgan g'oyalarni teran anglab yetgan Asil Rashidovdek badiiyat darg'asi kam bo'lsa kerak.

Buning sababi bor, albatta. Asil aka nafaqat Chingiz og'a ijodining qaymog'ini o'zbek kitobxonlariga yuksak mahorat bilan yetkaza oldi, ular haqida qator maqolalar, kitob va adabiy portretlar e'lon qildi. Uzoq yillik ijodiy izlanishlar o'laroq maydonga kelgan "Chingiz Aytmatovning badiiy olami" asari yuqorida e'tirof etilgan uch yo'nalishdagi mehnat hosilasi o'zbek milliy adabiyotshunosligining yorqin timsoli bo'lib tarixga kirdi.

Tarixda ham, hozir ham tarjimonman, deganlar ko'p. Ammo badiiy tarjima o'ta murakkab ish hammaning ham qo'ldan kelavermaydi. Til bilishning o'zi kamlik qiladi. Bunday tarjimon kishi ruhining

ichki dunyosiga kira bilish iqtidoriga ega bo'lishi kerak. Bu asnoda Asil aka benazir edi. Uning bu noyob iqtidoriga Chingiz Aytmatovning o'zi ham tan bergan.

Asil aka ijod bilan birga pedagogika institutida uzoq yillar adabiyot fanidan dars berib, navqiron qalblarni bu sehrli dunyoning sir-asrirlari bilan oshno etdi.

U kishining "Akam haqida" nomli risolasi Sharof Rashidovni yurt sardori, ijodkor sifatida emas, balki oila boshlig'i, mehribon ota va aka sifatidagi sof insoniy fazilatlarini muxtasar tarzda ifoda etgani bilan ham qimmatlidir. Aslida, Asil aka bir umr akasiga qilingan tuhmat-u yolg'onlardan ozor chekib o'tdi. U kishining ilm-ma'rifatga to'lgan qalbi bo'htonlarga uzoq bardosh bera olmadi. Davlat va xalq Sharof Rashidovning pok nomini tiklab, xotirasini ulug'lagandan keyin u kishiga tosh otganlarning birdan o'zgarib qolganini ko'rganda alloma tarjimon xayolidan neler o'tdi ekan...

Kitob bahona, ulug'larimizni yod etdik. Ilohim, ikkisining ham ruhi shod bo'lsin!

Ahmadali ASQAROV,
akademik,
"Buyuk xizmatlari uchun"
ordeni sohibi

MUSTAQILLIK KAFOLATI

Boshlanishi 1-sahifada.

Qurolli Kuchlarimiz tomonidan 20 dan ziyod mamlakat bilan ikki tomonlama harbiy hamkorlik yo'lga qo'yilib, 400 dan ortiq qo'shma mashg'ulotlarda yuqori ko'rsatkichlarga erishildi.

Mashg'ulotlar soni va shiddatining 1,5 barobarga oshirilgani, albatta, shunchaki raqam emas. Bu harbiy xizmatchilarning real jangovar sharoitlarga moslashuvchanligi oshganidan dalolatdir. Yangi taktik usullarning joriy etilishi esa qo'shinlarning nafaqat an'anaviy front chizig'ida, shahar sharoitida, tog'li hududlarda va lokal nizolarda ham muvaffaqiyatli harakat qilishiga zamin yaratmoqda.

Xalqaro Global Firepower Index reytingida O'zbekiston armiyasi Markaziy Osiyoda birinchi, MDHda to'rtinchi va dunyoning 162 mamlakati orasida 58-o'rinda qayd etilgan. Ushbu indeks mutaxassislari armiyalarni baholashda oltmishdan ortiq mezonni hisobga olgan. Bu raqamlar ham armiyamizning tobora ilg'or armiyaga aylanib borayotganini namoyon etadi.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining tashkil etilishi O'zbekiston harbiy ta'lim tizimidagi eng muhim burilish nuqta bo'ldi. Prezidentimiz tashabbusi asosida tashkil etilgan bu oliygohning maqsadi shundan iboratki, bugungi askar va ofitser faqatgina qurolni ishlata olishi kifoya emas, u tahlil qila oladigan, tezkor qaror qabul qiladigan va yuqori texnologiyalarni boshqara oladigan intellektual shaxs bo'lishi lozim. Milliy armiyamizda ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikka e'tibor vatanparvarlik hissinini faqat shiorlarda emas, balki har bir harbiy xizmatchining ongida shakllantirishga yo'naltirilgan ahamiyatidir.

Prezidentimizning soha bo'yicha belgilab bergan yangi vazifalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy armiya yuqori texnologiyalar va kuchli ijtimoiy institutlar majmuiga aylanmoqda. Eng katta inqilobiy islohotlardan biri – muddatli harbiy xizmatning ijtimoiy mohiyati o'zgarishidir.

Harbiy qismlarda 3-6 oylik kasbga tayyorlash kurslarining joriy etilishi askarning uyga sertifikatlangan mutaxassis bo'lib qaytishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, qurolli kuchlarda IT-avlodni shakllantirish masalasi Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida. "Bir million dasturchi" va "Besh million SI yetakchisi" loyihalariga har yili 5 ming askarning jalb etilishi davlatning kelajakdagi raqamli iqtisodiyoti uchun kuchli xazira yaratadi.

Harbiy qismning o'zida oliygohga kirish imtihonlarini topshirish va talabalikka qabul qilinishi bilan xizmatdan so'ng darrov o'qishni boshlash tizimi yoshlarning vaqtini tejaydi va ilmiy salohiyatini oshiradi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan yangi tashabbuslar milliy armiyamizni shunchaki harbiy kuch emas, balki yuqori texnologiyaga asoslangan, kuchli intellektual va ma'naviy salohiyatga ega zamonaviy tizimga aylantirish yo'lidagi muhim qadamdir. Texnologiya va ma'naviyatning sintezi milliy xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, armiya safida xizmat qilayotgan yosh avlodning kelajakda yuqori malakali kadrlar bo'lib yetishishiga ham zamin yaratadi. Bu esa, mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, O'zbekiston armiyasining xalq himoyasiga va har qanday zamonaviy tahdidlarga doimo tayyor bo'lishini kafolatlaydi.



Yig'ilishda mudofaa doktrinasini yangilash borasida tashabbus ham ilgari surildi. Gap shundaki, 2017–2025-yillarda mamlakatning mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash maqsadida sohadagi normativ-huquqiy hujjatlar takomillashtirildi, huquqiy baza yangilandi. Xususan, 2018-yil 9-yanvarda "O'zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasini to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. U bilan Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilmasi, jangovar kuchi va tayyorgarligi, shuningdek, mamlakatning mudofaa qobiliyati mustahkamlandi. Ammo dunyoda geosiyosiy vaziyat keskinlashib, gibrid urushlar va kibertahdidlar xavfi ortib borayotgan bir davrda, 1997-yilda qabul qilingan Milliy xavfsizlik konsepsiyasi va 8 yil avvalgi Mudofaa doktrinasining eskirgani sir emas. Yangi doktrinada ham bloklarga qo'shimaslik siyosati ustuvor maqsad bo'ladi. O'zbekiston o'z mustaqil tashqi siyosatini davom ettirib, hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga a'zo bo'lmaydi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, yangi doktrina armiyani texnologik yangilash uchun asos bo'ladi.

Har qanday armiyaning qudrati zamonaviy qurol-yarog' bilan birga, ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirilgan, o'z oilasi va kelajagidan ko'ngli to'q bo'lgan harbiy xizmatchilar bilan belgilanadi. Prezident tomonidan e'lon qilingan oylik maoshlar va ustamalarning oshirilishi shunchaki iqtisodiy ko'mak emas, balki davlatning o'z himoyachilariga bo'lgan yuksak e'tibori namunasidir. Shu ma'noda, Mudofaa vazirligi ofitserlarining ko'p yillik xizmati uchun ustamanning 2 karra oshirilishi professional kadrlarni tizimda saqlab qolish va ularning tajribasini qadrlashga xizmat qiladi. Oddiy askar va serjantlar maoshining oshirilishi esa shartnoma asosidagi xizmatning jozibadorligini yanada kuchaytiradi. Hududiy mudofaa ishlari boshqarmalarining harbiy bo'lmagan xodimlari ish haqining bosqichma-bosqich (20 foiz va 50 foiz) ko'tarilishi tizimning ma'muriy boshqaruv samadorligini ta'minlaydigan xodimlarni ham unutmamaklik kerakligini ko'rsatadi.

Eng muhim yangiliklardan biri – 30 yildan ortiq xizmat qilgan harbiylar uchun pensiya hisoblashda inobatga olinadigan oylik miqdorining 75 foizdan 100 foizga yetkazilishidir. Bu qadam harbiy xizmatni umrining mazmuni deb bilgan insonlarning keksalik davrini munosib o'tkazishini kafolatlaydi. Yangi ishlab chiqiladigan pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun loyihasi esa sohadagi ijtimoiy adolatni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Yangilanayotgan Mudofaa doktrinasini va ijtimoiy imtiyozlar tizimi O'zbekistonning tinchliksevar, ammo har qanday tahdidga munosib javob bera oladigan, zamonaviy va insonparvar milliy armiya qurish yo'lidagi qat'iy qadamidir.

Jamoliddin BADALOV



BEHBUDIY YILI

O'zJOKU professori, filologiya fanlari doktori Halim SAIDOV bilan suhbat



Boshlanishi 1-sahifada.

Juda ko'p savobli ishlar amalga oshirildi. Ularni "Jadid" gazetasi muntazam yoritib borganini mushtariylar yaxshi biladi.

– Mahmudxo'ja Behbudiya bag'ishlangan "Turkiston dahosi" kitobingiz chop etilgani bilan tabriklaymiz. Asar alloma tavalludining 150 yilligiga munosib tuhfa bo'ldi. Jadidlarga qiziqishingiz qachondan boshlangan?

– Rahmat tabrik uchun. Jadidlarga qiziqishim bobom tufayli o'quvchilik davrimdan boshlangan. Ilk bor "Oyina" jurnalini, adashmasam, yettinchi yo sakkizinchi sinfigimda ko'rganman. O'sha fursatda bobom ustozligida "Haftiyak"dan "Chorkitob"ga o'tgan edim. "Chorkitob"ning harfiga ko'nikishim qiyin bo'lgani bois, zer-u zabarsiz har xil eski kitoblarni topib o'qishga harakat qilardim. Bu harf tanish ko'nikmamni charxlardi. Bir kuni yerto'lada yashirib qo'yilgan arab alifbosidagi kitoblarni ko'rib qolganman. Ular orasida "Oyina" jurnali sahifalariga ko'zim tushdi. "Bobo, nega bu kitoblarni yerto'lada saqlanadi?" deb so'raganman. U kishi biroz sukut saqlab: "Ruxsat berilgan kitobni o'qiyver, bolam", deganlar...

1987-yilda jurnalistika fakultetiga o'qishga kirdim. Mustaqillik arafasida bir domlamiz bilan jadidlar borasida tortishib qolganman. Fikringni ilmiy jihatdan isbotlab bergin, deya bahsga g'olibona nuqta qo'ygandi domla. Shu voqea bo'lib, yana "Oyina"ga, Behbudi ijodiga jiddiyoq murojaat qila boshlaganman. Ilk maqolam kursimizning devoriy gazetasida, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida e'lon qilingan. Ustozim Mahmud Sa'diy daldasi va ilmiy rahbarligida diplom ishim mavzusi ham Behbudiyning publiksistik va muharrirlik faoliyatiga bag'ishlandi. Keyinchalik ilmiy jamoatchilik orasida shov-shuv bo'lgan yana qator materiallarni shu nashrda chop etildi. Bu paytda men aspiranturada Behbudiyni mavzusini chuqurlashtirib tadqiqot olib borayotgan edim.

Umuman, jadidlarga mehrim bo'lakcha. Bularning o'rtasidagi bahs-munozaralar, ayniqsa, mehr-oqibat meni hayratga solgan. Masalan, Behbudi "Samarqand" gazetasini iqtisodiy qiyinchilik sabab yopilishini nashr orqali e'lon qiladi. Gazeta ertalab Toshkentga yetib kelgach, Munavvar qori voqeadan xabar topadi, shaxsan o'zi uyima-uy yurib shahar ziyolilari, boylaridan mablag' to'playdi. Pulni tugunchaga o'rab, o'sha kuniyoq kech payti poyezdda Samarqandga yo'lga chiqadi. Ertalab "Samarqand" gazetasi tahririyatiga kirib boradi va gazetani chop etishda davom etish kerakligini muharrirga aytadi. Bu gaplarni o'z davrining zabardast ziyolisi Munavvar qori Abdurashidxonov emas, uning ortidan tushgan "Shaxrisyabkiy" laqabli xufya "oxranka" idorasiga yozib bergan. Oqibati nima bo'lishidan qat'i nazar, o'zaro munosabat, harakatni qarang! Tasavvur qilyapsizmi? Buning uchun qanaqa inson bo'lish kerak? Darvoqe, Behbudi safdoshi Munavvar qoriga Munavvarxon deya murojaat qilgan ekan.

Eng ko'p azob tortgan, tazyiq-u tahdidlarga uchragan, o'z maqsadidan qaytmagan, alaloqibat qurbon bo'lgan dastlabki jadidlar Mahmudxo'ja Behbudi va Munavvar qori Abdurashidxonov hisoblanadi. Chor "oxranka"sining ham, bolsheviklarning ham qora ro'yxatida, siyosiy, tarixiy adabiyotlarida Behbudi va Munavvar qorining nomi ketma-ket keladi. Ularga taqalmagan ayb, jinoyat, qabihlik qolmagan hisob. Ayniqsa, ularning har qadami tugul, olgan

har nafasini NKVD (keyinchalik KGB) josuslari kuzatgan. Mustamlakachilar ulardan shu darajada xavfsiragan, qo'rqan.

Hatto, istiqloqlning dastlabki davrida ham buning ta'siri kuzatildi. Misol uchun Fitrat, Qodiriy singari jadidlarimizga e'tibor bo'ldi, lekin Behbudi bilan Munavvar qori soyada qolib ketaverdi. Aytish kerakki, bu tarixiy kamchilik O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bartaraf etildi. "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, nohshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiyni tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida" Prezident qarori imzolandi. Mana shu katta to'yga men ham kichik hissamni qo'shishni niyat qilgandim. Kitob chop etilishida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi rahbariyati yaqindan yordam berdi, homiylik qildi. Chop etilgach, ilk munosabat "Jadid" gazetasida bosildi. Muallif professor Bahodir Karimovning fikrlarini o'qib, juda xursand bo'ldim.

Behbudi va safdoshlarining zahmatlari oldida bizning mehnat hech gap emas. Bu ulug' zotlar xotirasini hurmat qilishimiz, ular haqida yanada ko'proq tadqiqotlar olib borishimiz, yozishimiz, eng muhimi, ularga munosib bo'lishimiz kerak.

– Kitoblaringizdan biri "Ma'rifat libosidagi ozodlik" deb nomlanadi. Modomiki, ozodlikka ma'rifat orqali erishish mumkin ekan, uni saqlab qolishda ham ilm-fanning o'rni beqiyos bo'ladi. Shunday emasmi?

– Behbudi o'z maqolalarida bir-ikki odam yoki ellik kishi bilan taraqqiy bo'lmaydi, deydi. Mana, birinchi gazetamizning nomi ham "Taraqqiy". Taraqqiy – rivojlanish degani. Rivojlanishning mohiyatida Ozodlik yotibdi, ya'ni ellik-oltmish chog'li kishi bilan ozodlikka erishib bo'lmaydi. Millatni safarbar qilish uchun esa ilm-ma'rifat kerak, deydi.

"Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, ilm va fandan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lar".

Mahmudxo'ja BEHBUDIY

Behbudi maqola, hikoya, drama yozgan, gazeta-jurnal ochgan, tarjimalar bilan shug'ullangan. Barcha vositalardan foydalanishga harakat qilgan, shu jarayonda beixtiyor jadidga – yangilik yaratuvchiga aylangan. Chunki unda tayyor qolip yo'q edi. O'zi yo'l ochib yurishga majbur edi. Nima qilsa ham, shu millatning ongini yuksaltirish orzusida bo'lgan. Boshqa jadidlar ham shu, hammasining maqsadi yagona. Shuning uchun bugun ham oldimizga savol qo'yishimiz kerak: "Biz millatning ongini yuksaltirish uchun nima qilyapmiz?" Hammasi ular aytmoqchi, ta'lim-tarbiya orqali amalga oshadi.

Chor mustamlakachilari bosib olingan o'kalarda zamonaviy fanlarni o'rganishga ataylab yo'l bermagan. Bor tarixni ham soxtalashtirib, xalqni ajdodlarining boy merosidan mahrum qilgan. Jadidlarning birinchi qiladigan ishi tarixni xolis ko'rsatish edi. "Samarqand" gazetasining birinchi sonida Registon ansambllining viqorli surati bosilgan. U paytda surat juda qimmatga tushsa-da, Behbudi mablag'ni ayamagan. Nega? Amir Temurning so'zlarini eslang: "Agar bizning kuch-qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurdirgan imoratlarga boqing". Surat bobolardan faxrlanish, poymol bo'lgan g'ururni ko'tarish uchun berilgan. Shu bilan birga, tarixda qanday xato qadamlar tashlanganki,

buyuk davlatimiz parchalandi, millatimiz boshqalarga poymol bo'ldi, degan savolga javob beruvchi maqolalar yozishgan, darsliklar yaratishgan. Jadidlarning darsliklari faqat o'quv adabiyoti emas, xoh tarix, xoh geografiya bo'lsin, mavzular qatlariga milliy hurlik g'oyasi singdirilgan.

– Domla, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida ta'lim beryapsiz. Bugun yoshlar o'rtasida bir bahs ketmoqda: zamonaviy jurnalistikada amaliyot va nazariya o'rtasidagi muvozanatni qanday ushlash kerak? Jurnalistga diplom kerakmi?

– Bu eski bahs. Bir fikrim bor: o'qimasa ham jurnalist bo'lish mumkin. Lekin oliy ta'lim nima uchun kerak? Bunda men asosiy nazariy bilimlarni bilish kerak, deb o'ylayman. Biz sovet davrida shuni bilmaganmiz. Chunki bizga kommunistik matbuot nazariyasi bo'yicha dars berishgan. Mustaqillik bo'lgach, domlalar uni bir yumalatib, demokratik matbuot nazariyasi deb qo'yishdi. Lekin bu bilan ish bitmaydi. Bugun dunyoda qanday nazariyalar o'rganilyapti? Shu savolga javob topib, ularni ta'limga olib kirish, o'z nazariyalarimizni yaratishimiz kerak. Masalan, G'arb demokratiyasining bosib o'tgan uchta mashhur nazariyasi bor: avtoritar, libertarian va ijtimoiy mas'uliyat nazariyasi.

Avtoritar nazariyaga ko'ra, hukumatni, o'sha paytda – podsho va uning hokimiyatini tanqid qilib bo'lmaydi. Shundan keyin libertarian nazariyaga o'tilgan. Bu agrar jamiyatdan sanoatlashish davriga o'tishga xizmat qilgan. Libertarian nazariyada fikrni aytish huquqi berilgan va turli xil qarashlar jamiyatga kirib kela boshlagan. Mana shu omil asosan iqtisodni rivojlantirishda turtki bo'lgan. Libertarian nazariyaning o'ziga xosligi shuki, uning asosiy maqsadi hokimiyatga yordam beraman, demakdir. Garchi avtoritardan a'lo bo'lsa ham, bunda baribir, hokimiyat matbuotni o'zining xohishlaridan tashqariga chiqqani qo'ymagan. Keyin Amerika, Yevropaning katta qismi ijtimoiy mas'uliyat nazariyasi bilan yashadi. Mana endi, ular axboriy jamiyat nazariyasiga o'tyapti. Biz ham shu nazariyani axloqiy o'ziga xosligimizni asragan holda qo'llashimiz kerak. Davlat rahbari olib borayotgan siyosat va islohotlar axboriy jamiyat nazariyasiga o'tishni taqozo qiladi.

Masalan, jadidlar avtoritar nazariyadan libertarian nazariyaga o'tishga harakat qilgan. Qatag'onlardan keyin biz avtoritardan kommunistik matbuot nazariyasiga o'tdik. Bu rivojlanish emas, pastga tushdik, degani. Qanday qilib? Agar Nikolay zamonida erkin so'z aytganlar mulki musodara qilinib, qamalgan bo'lsa, bolsheviklar ularni qatl etish yo'lidan bordi. Endi biz, olimlar sovetlardan qolgan qoliplardan voz kechib, dunyoning ilg'or nazariyalarini milliy qadriyatlarimizga moslab rivojlantirishimiz kerak.

Ochiq fikrni eshita oladigan auditoriyani yaratishimiz kerak. Buning uchun fuqaro fozil bo'lishi lozim. Uni kim tarbiyalaydi? Jurnalist, albatta. Shu nuqtayi nazardan, jurnalist o'qishi kerak, nazariyalarni bilishi shart. Bu nazariyani amalga oshirishda xalqni o'ziga yordamchi qilish uchun xalq bilan ham ishlaydigan darajada fikrlaydigan jurnalist bo'lishi kerak. Faqat shov-shuvni ko'tarib, "oh-voh" qiladigan emas.

– Ko'rinib turibdiki, siz nihoyatda talabchan odamsiz. Odatda, bunday shaxslar avvalo o'ziga talabchanlik qiladi. O'z faoliyatingizdan, o'tgan yillaringizdan qoniqasizmi?

– Yo'q. Qoniqdim, deya olmayman. Qoniqdim, degan odam ishlamagan bo'ladi. O'z davrida ko'tara olmagan masalalar meni qiynaydi. Masalan, til, alifbo masalasi, xususan, lotin yozuviga o'tish muammolari, kollejar masalasini oxirigacha ko'tara olmaganmiz. Aslida, ular yaxshi niyatda tashkil qilindi, ammo ishlar oxiriga yetmay qolib ketdi. Buning oqibati haligacha sezilib turibdi.

Mana, bugungi oddiy misol. Germaniya hamshiraliq ish o'rniga o'zbekistonliklarni taklif qildi. Lekin talabga yarasha hamshira chiqmadi. Chunki nemis tilini bilish kerak. Til bilganlarda esa ma'lumot yo'q. Agar qizlar tibbiyot kollejlari o'qiganida edi, hozir bemalol katta oylik olib ishlayotgan bo'lardi... Shuning uchun ham ta'lim muammolarini yoritishda yetarli ish qila olmaganman, deb o'ylayman.

– Ustoz, suhbat davomida o'rta tashlanmagan, lekin aytishni dilingizga tugib qo'ygan fikrlaringiz bilan bo'lishsangiz.

– Ilmni rivojlantirib, ilm olib, yonimizdagilarga ta'sir qilib, millatni o'stirish uchun nima kerak bo'lsa, hammasini qilishimiz kerak. "Eng zo'r to'y qilib, tarixda qolaman", degan gap maqtanadigan narsa emas. Bugun bilim olgan, kashfiyot qilgan, yangi soha ochgan odamning maqtanadigan davri. Yaqin-yaqin gacha yer osti va yer usti boyliklarimizni xomashyo qilib sotib keldik. Tayyor mahsulotga aylantirib sotish haqida endi islohotlar boshladik. Nega bizning brendlarimiz arzon narxda-yu, boshqa davlatlarning brendi qimmat? Biz ularni sotib olamiz. Buning hammasi ilm, o'qish, hunar bilan bog'liq. Bitta hunar bilan qolib ketish emas, uni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish kerak. Chetdan tayyor qimmatbaho avtomobillar o'rni yangi avlod uskunalarini olib kirib yoki yaratib, xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirib, dunyoga taqdim etsak, ana o'shanda rivojlanish bo'ladi.

Umid shulki, bu yo'lda astoydil mehnat qilayotgan fidoyilar bor. Ulardan ibrat olayotgan, ergashayotgan yoshlar safi ham kengayib bormoqda. Shuning uchun ham yoshlarimizga kuch-g'ayrat, sabr-matnat va omad tilayman.

– Salomat bo'ling, katta rahmat! Mushtariylar nomidan Sizga ilhom va sabot tilaymiz!

Suhbatdosh:
Zarnigor IBROHIMOVA

MENING TAJRIBAM



O'QITUVCHI
TASHABBUSKOR
BO'LSIN!

Bugungi kunda o'qituvchi faqat dars o'tuvchi emas, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor shaxs sifatida maydonga chiqmoqda. Mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar pedagoglardan ham zamon bilan hamnafas bo'lishni, bilim va tajribani doimiy boyitib borishni talab etmoqda.

Ta'lim islohotlarining markazida pedagog shaxsi turibdi. O'qituvchilarning ijtimoiy mavqeyini oshirish, mehnatini munosib rag'batlantirish, malaka oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar pedagoglarga bo'lgan yuksak e'tibor ifodasidir. Bu e'tibor bizni yanada mas'uliyatli, fidoyi va tashabbuskor bo'lishga undaydi.

Men o'zimni oddiy dars bilan cheklanib qoladigan o'qituvchi deb bilmayman. Ta'lim sifati faqat sinf xonasida emas, balki turli loyihalar, tanlovlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali ham oshirishga ishonaman. Bu faoliyat o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularni fan va hayot o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga yordam beradi.

Maktabimizda amalga oshirilayotgan "Eco School" loyihasi faoliyatimda muhim o'rin tutadi. Ushbu loyiha doirasida o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, atrof-muhitga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Kimyo fani bilan bevosita bog'liq bo'lgan ekologik mavzularni amaliy mashg'ulotlar orqali tushuntirish, chiqindilarni qayta ishlash, suv va havo tozaligi, yashil hududlarni asrash kabi masalalar o'quvchilar ongiga singdirilmoqda. Ushbu loyiha doirasida maktab hududini obodonlashtirish, ko'chat ekish, ekologik aksiyalar, davra suhbatlari va targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda. Bu tadbirlar nafaqat o'quvchilar, balki butun maktab jamoasining birlashib, umumiy maqsad sari harakat qilishiga xizmat qilmoqda. Natijada o'quvchilar nazariy bilimlarini hayotda qo'llashni o'rganib, faol va mas'uliyatli fuqarolar bo'lib voyaga yetaypti.

Bugungi ta'lim islohotlari va pedagoglarga yaratilayotgan sharoitlar kela-jak avlod tarbiyasi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Biz ushbu jarayonlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lib, bilimli, ekologik madaniyatli, mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash yo'lida bor kuch va salohiyatimizni safarbar etishimiz zarur. Zero, ta'limdagi har bir ijobiy o'zgarish – jamiyatimiz kelajigiga qo'yilgan muhim qadamdir.

Mo'tabar BOZOROVA,
Kitob tumanidagi
ixtisoslashtirilgan
maktab-internatining kimyo fani
o'qituvchisi



“Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan Mahmudxo'ja Behbudiya teng keladigani yo'q deb o'ylayman.

Fayzulla XO'JAYEV

”



ILM AZIZ QILGAN ZOT

Boshlanishi 1-sahifada.

Ana shu davralardan birida qo‘qonlik hofiz yangi bastalangan ashulani ijro qiladi. Uning so‘zlariga diqqat qilgan Usmon ota muallifiga qiziqib qoladi: “Aziziy, kim u?” Charxiy domla kulibgina: “Po‘latjon domlaning o‘g‘li” deydi va 18 yoshli Qo‘qon neft texnikumi talabasi Azizxonni chaqirtiradi. Teran fikrli yigit yurt rahbari bilan munosib suhbat qurgach, Usmon Yusupov uni Toshkentga olib ketadi. U 1944-yilda O‘rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O‘ZMU)ning sharq tillari fakultetiga o‘qishga kiradi.

Azizxon Qayumov universitetda Y.Bertels, A.Arends kabi mashhur sharqshunoslardan ta‘lim oladi. Akademik Vohid Zohidov yigitchadagi zehn va harakatni ko‘rib, talaba ekaniga qaramay, Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutiga ishga taklif qiladi. Shu yerda o‘z faoliyatini ilmiy xodim, ilmiy kotib sifatida boshlaydi. Uning Vohid Zohidov bilan ustoz-shogirdligi bir umr davom etdi. Keyinchalik “Akademik Vohid Yo‘ldoshevich Zohidov” risolasini yozdi. Umuman, domlaning ajoyib xislatlaridan biri – ustozlarga sadoqati edi. U kishining qalamiga mansub “Akademik G‘afur G‘ulom”, “Akademik Oybek” va yana bir qator taniqli safdosh olimlar (A.Hayitmetov, R.Aminova, A.Asqarov, D.Azimova) haqidagi xotira-risolalari ham jamoatchilik e‘tiboriga tushgan.

Keyinchalik Aziz Po‘latovich Til va adabiyot instituti direktori, Madaniyat vaziri, Kinematografiya davlat qo‘mitasi raisi, Madaniyat instituti rektori bo‘lgan yillarida o‘zbek fani, madaniyati va ma‘rifati rivoji yo‘lida halol va samarali ishlarni amalga oshirdi. O‘ZFA H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar institutidagi ko‘pyillik rahbarligi davomida esa adabiy manbashunoslik va matnshunoslik sohasida o‘ziga xos ilmiy maktab va muhit yarata oldi. Mamlakatimizning turli ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta‘lim dargohlarida mehnat qilib, fan va maorif rivojiga hissa qo‘shgan va qo‘shib kelayotgan ko‘plab olimlar chin ma‘noda domlaning shogirdlaridir. 1998-yildan umrining oxiri – 2018-yilga qadar esa ustoz Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida yetakchi ilmiy xodim sifatida yoshlarga ilmiy jabhada o‘rnak bo‘lib, o‘nlab kitoblar chiqardi.

Domla qayerda ishlamasin malakali milliy kadrlarni yetishtirish, xotin-qizlarni ko‘proq ilm-ma‘rifatga jalb qilish masalasiga alohida e‘tibor berardi. 1958–1961-yillar davomida Til va adabiyot instituti (hozirgi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti)da rahbar ekanligida muhim tadqiqotlarga alohida urg‘u berdi. O‘sha davrda Porsoxon Shamsiyev, Hodi Zaripov, Solih Mutallibov, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdug‘afurov, Mahbuba Qodirova, Suyuma G‘aniyeva, Sobir Mirvaliyev kabi olim va olimalar yetishib chiqdi.

Azizxon Qayumovning milliy kadrlar, milliy adabiyot manfaati yo‘lidagi ishlari sovet mafkurasiga yoqmagani va bir necha bor qattiq dashnomlar eshitgan. Ayniqsa, uning doktorlik dissertatsiyasi asosida 1961-yilda nashr etilgan “Qo‘qon adabiy muhiti” kitobi Respublika Kompartiyasi yig‘ilishida muhokama qilingan, tanqidga uchragan. Adabiyotimiz tarixi va uning rang-barangligini tushunmaganlar “Nega endi Qo‘qon adabiy muhiti? Qayumov mahalliychilik qilmoqda. Bizda yagona sovet adabiyoti bor”, deya ayuhannos solgan. Natijada, domlaga hayfsan berilib, boshqa ishga o‘tkazilgan.

QADR DON KITOBLAR

“SHU SAFDA MEN HAM BORMAN!”

Kuni kecha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida milliy armiyamizni takomillashtirish bilan birga, farzandlarimizda vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

Buyuk mutafakkir ajdodimiz Alisher Navoiy: “Iyol-u vatan uzra to joni bor, Kishi harb etar toki imkoni bor”, deya o‘git beradi. Vatan himoyasi neligini chin vatanparvar insonlar – jaded bobolarimizdan so‘ramoq darkor.

“Quvvatimiz bo‘lgan askarlikka jon dil ila boqub, qalbizimiz uga tuhfa etaylik. ...Bu millat buning ila yashaydi. Buning ila buyuk bo‘ladir. Buning ila shon beradir, buning ila hayot bo‘ladir... Uyimizda kiyim-kechak, uy asboblirimizni orttirmoqqa harakat etmay, quvvatimizni orttirmoqqa harakat etaylik”.

G‘ulom ZAFARIY, 1918-yil

“Boshqalar tarafidan huquqingning toptalmovi, chetlarga mahkum, mazlum bo‘lmaslik, chept mamlakatlarga tovushingni eshitdirib, eshitmoqqa majbur etuvga shubha yo‘qkim, qo‘lingdagi quroling‘a, askariy kuching‘ga qarab bo‘lur. Ko‘ramizkim, Ovrupo, Amriqo millatlari bunchaliq shan-shavkatni faqat harbiy kuch ila qozonmishlardur... Mamlakat idorasi askarsiz mumkin emas... Shuning uchun agarda biz mustaqil, qullikdan qutilib yashovni xohlar ekanmiz, yaqin istiqbolimizdagi baxtli kunlar uchun askar bo‘luvimiz, vatan muhofazasiga hozirlanuvimiz lozimdur”.

Abdulla QODIRIY

Jadidlar nafaqat milliy armiyani barpo etishni orzu qildi, balki, avvalo o‘zlari Vatan himoyachisi sifatida maydonga chiqdi,

Olim yaratgan asarlarda ilk turkiy yozma yodgorliklardan tortib, to XIX asrning oxirigacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotiga daxldor materiallar tadqiq etilgan. Masalan, ustoz “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh jildligining hammuallifi, “Maxmur”, “Hoziq”, “G‘oziy”, “Qo‘qon adabiy muhiti (XVIII–XIX asrlar)”, “Qadimiyat obidalari”, “Beruniy va adabiy ijod”, “Beruniy va Ibn Sino” kitoblarining muallifidir. Uning ijodida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur mavzusi alohida o‘rin tutadi. “Saddi Iskandariy”, “Hayrat ul-abror” talqini”, “Farhod va Shirin” sirlari”, “Ishq vodiysi chechaklari”, “Alisher Navoiy”, “Nodir sahifalar”, “Zahiriddin Muhammad Bobur”, “Bobur davridagi Andijon adabiy muhiti” risolalari so‘zimiz isbotidir. Yana, olimning Ahmad Farg‘oniy, Najmiddin Kubro, Amir Temur, Abdurahmon Jomiy, Ogahiy, Furqat hayoti va ijodiga oid risolalari ham keng e‘tibor qozongan.

Mumtoz adabiy asarlarimizni nashr ettirib, targ‘ib qilishda ham Azizxon Qayumov oldingi saflarda bo‘lgan. Sovet davrida Bobur shaxsi va ijodiga munosabat sovuq bo‘lgan bir paytda uning she‘rlarining O‘zbekistondagi alohida ilk ikki nashri 1957–1958-yillarda domla tomonidan amalga oshirilgan. Ustoz ilk bora Maxmur, Uvaysiy, Nodira she‘rlari, Po‘lat Qayyumiyning asarlarini nashrga tayyorladi, adabiy merosimizning ko‘pgina nashrlariga muharrirlik qildi. Ibn Sino “Tib qonunlari”ni arabchadan tarjima qilishda qatnashgan bo‘lsa, uning ilmiy tahriri ostida chop etilgan Qo‘lyozmalar institutining ikki jildlik rus tilidagi katalogi 1998-yili xalqaro Imom Buxoriy mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Moskvada nashr etilgan “Библиотека мировой литературы” va “Библиотека поэта. Большая серия” kitoblariga ham aynan Azizxon Qayumov Navoiy asarlarini rus tilida tayyorlab bergan. Shuningdek, YUNESKO tomonidan 2000-yili Fransiyada chop etilgan “Dunyo adabiyoti” va “Markaziy Osiyo madaniyati” kitoblarining adabiyot qismi ustoz tomonidan yozilgan. Umuman aytganda, akademik Qayumovning nashr etilgan jami kitob, risola va maqolalarining adadi 500 dan ortiqni tashkil etadi.

Domlamizning yana bir ibratli jihati bor edi. U ilmiy jabhada ham, hayotda ham deyarli hech tortishmas, tanqidlarga bardoshli edi. Ilmiy majlis yoki anjumanlarda u yoqlamagan fikr-mulohazalar qalqib chiqsa-da, hayajonlanmas, o‘z ilmiy yondashuvini ohista bayon etib qo‘yardi, xolos. Matbuot orqali ham hech qachon ilmiy mavzulardagi bahslarga qo‘shilmasdi. Bizga aytardiki: “Agar biror olimning ilmiy masala yuzasidan chiqishi yoki fikri yoqmasa, tanqid qilib o‘tirmang, yozing va kitob holidagi chiqaring”.

Shuningdek, Azizxon domla iste‘dodli shoir edi. Uning “Aziziy” taxallusi bilan yaratgan ko‘plab she‘rlari, jumladan, Alisher Navoiy g‘azallariga yozgan o‘nlab muxammaslari e‘tirofga sazovor bo‘lgan.

Domlaning milliy adabiyotshunosligimiz tadqiqiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan uzoq yillik izlanishlari uning 10 jild (12 kitob)dan iborat asarlarida o‘z aksini topgan, deyish mumkin (Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008–2013). Ta’kidlash kerakki, dunyo adabiyotshunoslari orasida ham bunday ko‘p jildli asarlari bosilgan olim kam topiladi.

Azizxon Qayumov tom ma‘noda yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlovchi ustoz edi. Qo‘lidan kelsa moddiy yoki

boshqa jihatdan, eng kamida yaxshi so‘zi va e‘tirofi bilan ko‘ngilni ko‘tarar edi. Garchand o‘zi ulkan olim, mumtoz adabiyotning katta bilimdoni bo‘lsa-da, bu sohada amalga oshgan biror kichik yutuqni yosh tadqiqotchidan eshitsa, olqishlab: “Qarang-a, bilmas ekanmiz. Sizga rahmat”, der edi.

Diqqatga sazovor yana bir xususiyati – ustoz yoshi ulg‘ayib qolganida ham ilmiy yig‘in va anjumanlarda, ayniqsa, yosh olimlar konferensiyalarida imkoni boricha oxirigacha o‘tirar, har bir chiqishni diqqat bilan eshitardi. Yodimda bor, bir yoshlar anjumanida ustoz biroz toliqdimi, tadbirni tanaffus bilan davom ettirishni taklif qildi. Lekin uzoqdan kelganlar ko‘proq ekanmi, shu kunioyq anjumannni tezroq tugatish uchun tanaffussiz ishlash ma‘qul topildi. Shunda domla “men akademikman, yoshim ulug‘” demadi, indamay rozi bo‘ldi va bir fursatdan so‘ng uzr aytib chiqdi. Domlani kuzatarkanman, yuzida xafalik sezmadim.

Domla Fanlar akademiyasidan boshqa tizimda ishlaganda ham ilm-ma‘rifatli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor berar edi. Masalan, Kinematografiya davlat qo‘mitasining raisi bo‘lib ishlab yurgan kezlari, u vaqtlarda yosh va iste‘dodli shoir Rauf Parfining ishsiz qolgani haqida eshitib qoladi. Shoirni huzuriga chaqirtirib, biroz suhbatlashgach, uni ishga oladi. Qizig‘i shundaki, shoirga hech qanday vazifa yuklatilmaydi. Faqat, hafta oxirida rahbar – Azizxon Qayumov xonasiga kirib hisobot topshirishi kerak edi. Bu jarayon esa Rauf Parfining yangi yozgan she‘rlarini domlaga o‘qib berish bo‘lgan. Shu zaylda shoir bir necha muddat ishlaydi. Keyinchalik, shoir “o‘zim uyalib, bo‘shab ketdim”, deya eslagan va “Bitiktosh. Azizxon Qayumovga” deya she‘r ham bitgan. Albatta, Azizxon domla keyinchalik o‘zi haqida shoirning she‘r yozishi, iliq xotirlashi uchun emas, yosh bir noyob iste‘dodni sarson bo‘lmasligi, xotirjam ijod qila olishi uchun o‘z imkoniyati doirasida yordam qilishni ko‘zda tutgan.

Shu bilan birga, Azizxon Qayumov mamlakat ijtimoiy hayotida ham faollik ko‘rsatgan. Uning O‘zbekiston Oliy Majlisi deputati (1995–2000) sifatidagi xizmatlari, “Milliy tiklanish” partiyasining ilk rahbari va partiyani tuzish bilan bog‘liq jonbozliklari ham ziyolilarga yaxshi ma‘lum.

Ustozning xonadoniga borib yurgan ko‘pgina shogirdlari biladi, hovliga kiraverishda o‘ng burchakda chala bitgan g‘ishtin imorat bo‘lardi. Azizxon Qayumov bu imoratni Til va adabiyot institutiga direktor bo‘lib kelganida boshlagani va mana qarib qoldi hamki hanuz bitirilmaganini kulib so‘zlardi. O‘zi shu kottej hovlining asl eski xonalarida yashab o‘tdi. Juda katta lavozimlarda, qo‘li uzun bo‘lgan davrlar kechgan bo‘lsa-da domla halol mehnat bilan kun kechirardi. Imoratini ham oylik maoshi hisobiga asta-sekin qurardi. Ammo nihoyasiga yetkaza olmadi. Sababi nafaqaga chiqdi...

Ustoz H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar institutiga yigirma yil davomida direktorlik qildi. U bilan ishlagan barcha biladiki, domla g‘oyat adolatlil va halol rahbar bo‘lgan. Hatto, bir yili institut rahbari uchun ajratilgan xizmat mashinasi va unga biriktirilgan shofyordan ham voz kechib, uning mablag‘ini ilmiy xodimlar maoshini ko‘tarishga safarbar qilgan. Buni biror marta biror xodimga minnat ham qilmagan...

Bir hamkasbimiz o‘g‘lini uylantirishi sababli to‘y bazmda domla bilan mehmon bo‘ldik. Bazmda ustoz yoshlarga baxt tilab, qisqagina, chiroyli nutq so‘zladi. To‘y qizigan



AZIZIY NAVOIY G‘AZALIGA MUXAMMAS

*Telba-u shaydog‘a dunyo tor bo‘lg‘aymu edi?
Ishq o‘tida kuymasa bemor bo‘lg‘aymu edi?
Hajr jabrin chekmagan dil xor bo‘lg‘aymu edi?
Bo‘lmasam oshiq, fig‘onim zor bo‘lg‘aymu edi?
Kuymasam pinhon, ichim afgor bo‘lg‘aymu edi?*

*Kunduzi orzuyi vaslingdan bo‘lakni bilmasam,
Tunlari yodingni ulfatligidin ayrilmasam,
Misli parvona charog‘i husninga intilmasam,
Zulfiga vobasta-u ko‘zingga vola bo‘lmasam,
Jon parishon-u ko‘ngul bemor bo‘lg‘aymu edi?*

*Ishq o‘tini qilmaganda bag‘rida paydo ko‘ngul,
Sarvi qadding ishqin o‘zga etmaganda jo ko‘ngul,
Xoma-u mujgoning bo‘lganda beparvo ko‘ngul,
Bo‘lmasa kofir ko‘zing oshuftasi shaydo ko‘ngul,
Jon parishon-u ko‘ngul bemor bo‘lg‘aymu edi?*

*Ranjga to‘lgan ekan-ku ishq nomli bu chaman,
Kuydirar erkan qizil cho‘g‘dan batar durri adan
Kim, Aziziy bo‘lganida oshiqi shirin suxan,
Ey Navoiy, qilsang erdi ofiyat kunin vatan,
Muncha munглиg‘ jonining ozor bo‘lg‘aymu edi?*

sari o‘yin-kulgi avj olib, ayrim kimsalar o‘ynayotganlar ustidan pul socha boshladi. Shunda men birinchi marta Azizxon Qayumovning g‘azablanganini ko‘rdim: “Bu nimasi, qanday razolat?” deya achchiq so‘zladi. So‘ngra bazmda ko‘p o‘tirmay, sekin chiqib ketdi.

Shunday, Azizxon ustoz odamiylik va madaniyatga mos kelmagan har qanday illatga nafrat bilan qarardi. O‘zi halol yashagani uchun boshqalarni ham shunday yashaydi, degan yuksak fikrdagi inson edi. Shuning uchunmikan, uzoq va xayrli umr ko‘rdi. U 2018-yil 16-fevral kuni 92 yoshida vafot etdi. Ta’ziya sabab, domlaning uyiga ilk bor kelgan ayrimlar: “Akademikning uyi shumi? Shunchalik oddiy yasharmidi?” deya hayron ham bo‘lgan.

Muhtaram olimning sermahsul ilmiy-ma‘rifiy va jamoatchilik faoliyati Beruniy nomidagi Davlat mukofoti, “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvoni, “El-yurt hurmati” va “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari bilan taqdirlangan. Azizxon Qayumovning halol va ibratli hayot yo‘li doimo barchamizga o‘rnak bo‘lib qoladi.

Otabek JO‘RABOYEV,
filologiya fanlari nomzodi

qo‘limdagi tutab turgan papirosni ko‘rsatdim. Komandir: “Ha, chekayotganmiding”, dedi-da, darhol shashtidan tushdi. Shu-shu, chekisha o‘rganib ketdim”. O‘sha vaqtda askarlarga bepul sigareta tarqatilgani ham ularda salbiy illatlarning shakllanishi rag‘batlantirilganidan dalolat bermaydimi, aslida?

Bugun u davrlardagi armiya bilan mustaqil O‘zbekiston Qurolli Kuchlari o‘rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Bugun mamlakatimiz mustaqilligi, yurtimiz tinchligi va xavfsizligi, sarhadlarimiz daxsizligining mustahkam qalqoni bo‘lmish armiyamiz, jasur va sheryurak askarlarimiz bilan har birimiz chinakamiga faxrlanamiz. Shunday fidoyi farzandlari bor ekan, xalqimiz hamisha poydor ekaniga qat‘iy ishonamiz.

Shoir o‘zini shu yangi milliy armiyaning shonli safida ko‘radi, “Shu safda men ham borman”, deb g‘ururlanadi, boshqalarni ham shu safga chorlaydi.

Angladimki: dunyoda na jon, na tan abadiy,

Faqat Vatan abadiy, faqat Vatan abadiy.

Mening ham har bir she‘rim – hayot-u mamotimdir,

Oliy Bosh qo‘mondonga ichgan qasamyodimdir.

She‘rni o‘qir ekansiz, qalbingizda yorug‘ umid tug‘iladi. Axir, hali “kelajakning askari” – “Milliyon-millyon beshikda – chaqaloqlar lashkari” bor.

Ijtimoiy hayotimizda o‘ziga xos voqea bo‘lgan she‘r tezda qo‘shiqqa aylandi, katta-katta davralarda yangrab, qalblarimizni qayta zabt etdi.

Ayni paytda, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va Mudofaa vazirligi hamkorligida “O‘zbekiston” nashriyoti tomonidan “Mard askarga sog‘a” rukni va “Armiya va tarbiya” nomida 50 ming nusxada alohida kitobcha nashr etilgani xayrli ish bo‘ldi. To‘plamga shoirning ushbu mashhur she‘ri bilan birga, unga hamohang bo‘lgan “Vatan posbonlariga”, “Jonim Vatan”, “O‘z bolangni o‘zing asra”, “Vatan abadiydir”, “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” kabi she‘rlari ham kiritilgani e‘tiborlidir. Ayni kunda askarlarimizning nafaqat yon cho‘ntaklari, balki yuraklaridan o‘rin olgan ushbu kitob barcha harbiy ta‘lim muassasalari va maktablarga ham tarqatilib, farzandlarimizga chin vatanparvarlik sabog‘ini ulashmoqda.

Ikrom ISKANDAR





KUZATUV

MARDLAR KUNI



ER JANGCHI

Yurak va Yer kurrasini bir-biriga o'xshaydi. Ikkinchisi sodir bo'layotgan hodisalarni insoniyat hanuz mushohada qiladi. Ochundagi bu sirli jarayon endi boshlanganmi? Yo allaqachon oxirlab qoldi-mikan? Buni bilishning aslo iloji yo'q. O'n-o'n besh ming yil... axir, u koinot vaqti va tiriklik qoshida yalt etgan oniy shu'laning umridan ham qisqaroq.

Bu hodisalar xuddi shunday ko'rinishda inson yuragida ham sodir bo'ladi. Inson shu ikki dunyo orali-g'ida hosil bo'lgan yo'lakdan yurishga majbur. Uning aniq bilib, his qilgani yo'lakning ikki tarafida ham har qadamda uni xatarlar poylab turganidir. Shunday dunyoning ichida nega u xotirjam? Nega uni xuddi yengilmas jangchilar hamisha hushyor qo'riqlab turgandek, bu xatarlarga deyarli parvo qilmasdan yashashda davom etaveradi?

Yer kurrasini va yurakda sodir bo'layotgan barcha hodisalarga jangchi ishtiroki bor. Usiz borliqda birorta hodisa sodir bo'lmaydi. Yer kurrasini qo'riqlaydigan, yurakka xavf soluvchi barcha xavf-xatarlarni daf qiluvchi udir. Uning qiyofasini aniq tasvirlab bo'lmaydi. U ajdodlarimiz nigohida Alp Er To'nga, Shiroq, Onaqut, To'maris, Spitamen, Qo'rqut Ota, Alpomish, Go'ro'g'li, Kuntug'mish, Mahmud G'aznaviy, Sulton Sanjar, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud, Sayyid Amir Kulol, Sohobqiron Amir Temur, Ubaydullaxon, Abdullaxon, Amir Shohmurodbiy singari tarixiy shaxslar qiyofalarida qayta-qayta gavdalanaveradi.

Bu insonlar hayot-mamot kurashida ezgulik yalovini baland ko'tarib, yovuzlikka qarshi murosasiz kurash olib borgan. Ularning bu kurashdagi har bir jasorati, mardligi, g'alabasi millat qalbini faxr va sururga to'ldirgan. Er Jangchilar olis qadimdan hozirgacha qavmiga bayram va shodiyonaliklar tuhfa etib kelgan. Dunyodan boxabar kishi Er Jangchini, uning yangi g'alabalarini kutib, sog'inib, orzu qilib yashaydi. U bor ekan, umrning har kuni bayram, shonli tantanaga aylanadi.

HARBIY SIR

Biz yashayotgan yurtning tarixiy nomi bitta emas. Juda eski zamonlardan hozirgacha u Turlar yurti, Turon, Sakiya, Sug'diyona, Xorazm, Turkiston, Movarounnahr, Transaksoniya singari sharafli nomlar bilan atab kelinadi.

Mayli, hozircha uning shu ismlari bilangina cheklana qolaylik. O'zbekiston uning eng yangi ismlaridan biridir. Musulmonlar Tangri taoloning to'qson to'qqiz nomini e'zozlab takrorlash va tuganmas ishtiyoy bilan anglashga uringanidek, yurt farzandlari o'zlari yashayotgan zaminning tabarruk nomlarini albatta bilishi va qalbida asrashii hayotiy ehtiyoj, zarurdir. Ayniqsa, bugun.

Ularning orasidan istalgan uchta-sini... masalan, Turlar yurti, Sakiya, Movarounnahr nomlarini tanlab olamiz. Birining tarixi miloddan oldingi 4-5 ming yillarning naryog'iga singib ketadi.

Ko'p hollarda bu tarixning adog'ini tadqiqotchilar ham yo'qotib qo'yadi. Ikkinchisi 3 ming yillar avval yargirab ko'zga tashlangan. Uchinchisi ularning safiga milodiy VII asrdan qo'shiladi. Ularning hech biri aniq bir kishi nomidan olingan emas. Keyinchalik ularidan ba'zan kishi nomlari va boshqa atamalar ham yasalgan.

Turli nomlar va sifatlari bilan dunyoda shuhrat qozongan, butun borlig'i hamda muqaddas sirlarini buyuk O'kuz va Yaksart oralig'iga bekritgan ajdodlarimiz oqsoqol Tangritog' va afsonaviy Ko'hi Qof oralig'idagi kengliklarda ozodlik va hurlik havosidan erkin nafas olgan. Bu zamin o'z bahodirlariga tuganmas quvvat bag'ishlagan. Bobolarimiz, momolarimiz shu tuproqda ko'p millatlar asrlar davomida faqat orzulab yurgan madaniyatni amalda barpo qilgan. Bu ijtimoiy jarayonlarning biortasini o'sha Er Jangchi va harbiylar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Qiziq, dunyoda biror yurt yo qavmning nomi biznikichalik ko'p emas ekan. Bu nomlarning biortasini unutgan kunimiz, tarixiy merosimizning ulkan bir bo'lagidan ayirilamiz. Yurti, uning barcha nomlarini qanchalik tiyrak anglasak, o'zimizni taniy boshlaymiz. Har qanday quyuq zulmat orasidan ham bir-birimizni shu nomlar bilan chaqiribgina topishishimiz mumkin. Bu nomlar – bu yurtning dushmanlarini hanuz cho'chitib turadigan tilsimlari... yoki Er Jangchining vorislaridan bo'lak biror kimsa anglab yetolmaydigan harbiy siridir.

QURULTOY – HARBIY TO'Y

Tariximizda bayramlar ko'p bo'lgan. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy, Abu Rayhon Beruniy, Abdulloh Xorazmiy, Najmiddin Umar Nasafiy kabi o'rta asrlarda yashagan yana ko'plab mualliflar asarlaridan bu mavzuga oid yetarlicha ma'lumotlar topsa bo'ladi.

Bayramlar orasida yosh-u qari to'liq va faol ishtirok etadigani – Yilboshi (Navro'z), Ramazon va Qurbon hayitlari edi. Tadqiq etib ko'rilsa, qadimgi bayramlarning qariyb barchasi qaysidir jihatlari bilan albatta harbiylarga bog'liq bo'lib chiqaveradi. Bunday emaslari kam.

Jangchilar va harbiylar uchun qadim Turonda odatda asrlar davomida qish fasli o'ziga xos bayram bo'lgan. Xuddi shu faslda urushlar nisbatan kamaygan. Turkiy hukmdorlar o'zaro maqsadlarini va qo'shni davlatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarini belgilab, aniq rejalashtirib olish maqsadida ko'pincha qishda qurultoyga to'planishgan.

Bu tadbir o'ta jiddiy va rasmiy hisoblangan. Turon tarixida bunday siyosiy va harbiy tadbir Turk hoqonligi va Ashtarxoniylargacha bo'lgan davr oralig'ida aniq ko'zga tashlanib turadi. Mamlakatimiz hududlarida uning XVIII asr boshlarigacha o'tkazib kelingani haqida tarixiy qo'lyozma manbalarda qiziqarli ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ubaydullaxon ibn Subhonqulixon davridan keyin bu an'ana barham topadi. Oradan salkam yarim asr o'tib, mang'itlar sulolasi asoschisi

Muhammad Rahimxon (1753–1759) bu an'anani qayta tiklashga harakat qiladi.

Qurultoy tom ma'noda harbiy to'y edi. Uning tepasida bosh hukmdor turgan. Undan quyida hukmron sulolaning viloyatlarni boshqarayotgan yoshi ulug' hukmdorlari, valiahd sultonlar, o'ng va so'l qanotga ajratilgan yirik urug' va qabilalarning boshliqlari, ishonchli vakillari joy olgan.

Qurultoyga yig'ilgan xonlar, sultonlar, amirlar, biylar bu tadbirga kelishdan oldin o'zlarining hamma imkoniyatlarini sinchiklab ko'zdan kechirgan. Reja birinchi galdga qo'shinning qudrati va jangovarlik qobiliyati asosida shakllangan.

Qurultoy bir necha kun davom etgan. Uning ishtirokchilari ziyofat bilan siylangan. Davlat uchun munosib xizmat ko'rsatgan shaxslar pul, yer, unvon va boshqa turli mukofotlar bilan taqdirlangan.

Qurultoyning ikkinchi lavhasini jangchilar musobaqasi tashkil etgan. Unda turli joylardan yetakchilariga qo'riqchi bo'lib kelgan harbiylar orasidan sara jangchilar ajratib olingan. Ular maydonga tushib qilichbozlik, nayzabozlik, merganlik, yakkamayka janglarda o'zlarining mahorati va kuchini namoyish qilgan. G'oliblar albatta mukofotlangan.

Qurultoy tarixiga teranroq nazar tashlaydigan bo'lsak, uning bugungacha yetib kelgan izlarini ham topishning iloji bor. Uning shamoli qishloqlarda, dalalarda, tog'larda esib yuradi.

14-YANVAR

Har gal shu sanaga yuzmayuz kelish, unga peshvoz chiqishdan oldin bir zum taraddudda to'xtayman. Shu bir zumlik taraddud, istihola bizga oddiy inson Yuragi va Yer kurrasini ko'rsatdi. Ular juda o'xshash.

Ikki shu omonatligi, Er Jangchining himoyasiga muhtojligi ularga qaragan har qanday kimsaga aniq ko'rinib turadi. Ammo ikkisining ham qo'z'ksida bir yurt joylashgan. U – O'zbekistondir.

Bu kun faqat Respublika qurolli kuchlari safida xizmat qilayotgan harbiylar bayrami emas. Shu mamlakatda yashayotgan, uning kelajagi uchun qayg'urayotgan, pinhona yo oshkora uni sevadigan, alqaydigan har bir fuqaro bu kunni bayram qilishga munosibdir.

Bu kun millat erlari, yurt vatanparvarlarining uzoq asrlar mobaynida tinchlik yo'lida xizmat qilib kelgan tarixiy qurultoyi davomidir. Bu kunni qadimda jangchilar, bahodirlar, o'lim bilan yuzlashganda ham seskanmaydigan yigitlar orziqib kutgan, sharafli musobaqalarda o'zlarini sinab ko'rgan.

Yurt ori, nomusi, faxri uchun kurashga tushuvchilar bo'lsa, ushbu qadimiy qurultoy – elning barcha alplarini to'playdigan kekka Turon bobo yig'iniga marhabo... U yer yuzidagi tiriklik va erk qo'riqchilarining eng qadimiy to'yi – mardlar saralanadigan maydondir.

Abdusattor JUMANAZAR, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi

Boshlanishi 1-sahifada.

Sovet davrida xalqimizni yoppa savodsizga chiqarishgan. Lekin o'sha paytlarda chekka qishloqdagi eng sodda ayol ham xalq dostonlarini (ertaklari demayapman), oyat va hadislarni, maqol va matallarni, tabiat sirlarini yaxshi bilgan. Ularning hikmat-u baytlar bilan to'yingan nasihatlari avlodlarni katta hayotga tayyorlagan. Hamid Olimjonning satrlari esingizdami:

Bolalik kunlarimda, Uyqusiz tunlarimda, Ko'p ertak eshitgandim, So'ylab berardi buvim.

“O'tkan kunlar” romanidagi Kumushning maktubini olaylik: “Yusuf savdosida beqaror Zulayho ismidan, Majnun ishqida yig'lag'an Layli otidan – sizga boshimdag'i sochlarimning tuklaricha behad salom. Mendan – haddu hisobsiz gunoh, sizdan – kechirish”. Gapning boshlanishini qarang: qanday nafis, qanchalar yuksak. Bu faqat qizning sof ishqqa muhtaloligidan emas, ilmi, ziyoli inson ekanidan dalolat beradi. Bejiz tarixdan kelmadim: olimalik xalqimiz ayollarining qonida bor.

Bugun esa ilm olaman, o'z ustimda ishlayman, ilmiy darajalarga erishaman, kashfiyot va ixtirolarim bilan Vatanimga, xalqimga, ilmga foyda keltiraman, degan xotin-qizlarga davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Yosh olimalar, avvalo, ayol bo'lgani uchun sharqona ehtirom va ilmni tanlagani uchun e'tibor ko'rmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Hozirgi vaqtda 6 ming 200 dan ortiq xotin-qizlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgani,



ilmiy ishlanmalarning 25 foizini olima ayollari-miz yaratayotgani ham, jamiyatda ularning o'rni mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Ularning orasida xalqaro darajada e'tirof etilayotgan ilm-fan vakillarining borligi barchamizga cheksiz faxr-iftixor bag'ishlaydi, yoshlarimizni yangi-yangi yutuqlarga undaydi. Ayollari o'qimishli va kasb-hunarli bo'lgan yurtda tinchlik va taraqqiyot bo'ladi. Ayollari ma'rifatli bo'lgan xalq, albatta, baxtli bo'ladi”.

– Shubhasiz, fan doktori, professor, 220 dan ortiq ilmiy ishlar va ko'plab o'quv qo'llanmalar muallifi sifatida ana shu safda Sizning ham munosib o'rningiz bor.

– Bundan doim faxr va g'urur tuyaman. Asosiy gap oilada qoladi. Istaymizmi-yo'qmi, sharq ayolining taqdiri bevosita oilaviy muhitga bog'liq, xossatan, turmush o'rtog'iga. Yoshlik chog'i charaqlab chiqib, turmushga chiqqach, suvga cho'kkan toshday g'oyib bo'lgan bo'lajak olimalar, xonandalar, rassomlar, shoirlar ozmi deysiz. Shu bilan birga, aynan oila qurib, umr yo'ldoshining qo'llab-quvvatlovi bilan yuksak natijalarga erishgan ayollarimiz qancha.

Kamina ana shu ikkinchi toifa vakilasi. Oilamizda ilmiy muhit kuchli bo'lgan. Xo'jayinim yengil sanoat yo'nalishida yirik olim edi. U kishi ba'zi erlarga o'xshab: “Men fan bilan mashg'ulman, mayda-chuyda ishlar bilan bezovta qilma, bola-baqraning yig'isi bilan xayolimni chalg'itma!” deb xudbinlik qilmasdi. Aksincha, turmushimizning ilk yillaridanoq o'z ishlaridan ko'ra menga ilm bilan shug'ullanishim uchun ko'proq sharoit yaratishga harakat qilgan. Ba'zan xizmat safariga ketishimga to'g'ri kelardi. Shunda ham to'g'ri tushunib, “Boraver, ilmiy ishingdan qolma, uy ishlarini eplab turamiz”, derdi samimiy. Gaplarida kinoya yo og'rinish sezmadim bir umr.

Oiladagi ana shu rag'bat men uchun eng katta poydevor bo'lgan. Ilmiy faoliyatim davomida dastlab Qizilqumda nomzodlik ishini bajardim. Doktorlik dissertatsiyamni Farg'ona vodiysining Chortoq, Chust, Pop adirlarida o'simliklarning qurg'oqchilikka moslashuvi mavzusida himoya qildim. Bu ishlar bilan nihoyatda maroqli bo'lgan. Shogirdlarim menga birga katta qiziqishga izlanishlar olib borganmiz. Turli yo'nalishlarda 12 nafar fan nomzodi tayyorlaganman. Ular hozir respublikaning turli hududlarida ilmiy faoliyatini davom ettirmoqda. Ilmga chin dildan qiziqqan inson barcha qiyinchiliklarni yenga oladi va izlanishdan zavq topadi. Ilmiy ishlarimning natijalari xorijda ham e'tirof etilgani men uchun katta baxt.

Samarqand universitetini tamomlagach, Fanlar akademiyasining Botanika institutida uzoq yillar ishladim. Adirlar va cho'llarda ilmiy kuzatishlar olib borib, izlanishlarimni davom ettirdim. Keyinchalik O'zbekiston Milliy universitetining Ekologiya fakultetida faoliyat boshladim va hanuz shu yerda ishlayapman.

– Qurg'oqchilik asrimizning eng og'ir muammolaridan biriga aylangan bir vaziyatda, Sizning sun'iy yaylovlar barpo etish mavzusida tadqiqot olib borganingiz tahsinga loyiq. Doktorlik dissertatsiyangiz mohiyatini qisqacha tushuntirib bersangiz.



– Yuqorida aytganimday, qurg'oqchilikka chidamli o'simliklarni o'rganish uchun Chust, Pop va Chortoq adirlarida bir necha yil davomida ilmiy kuzatishlar olib borganmiz. Kuzatishlar aprelidan sentyabrgacha – har oyda bir haftadan davom etardi.

Bir necha yil mobaynida qurg'oqchilikka chidamli o'simliklarni chuqur o'rgandik. Ularning ayrimlari sug'orilmaydigan, lalmikor sharoitda ham yaxshi hosil beradi. Masalan, izen (Kochia prostrata) shulardan biri. Biz o'simliklarni moslashuv darajasiga ko'ra guruhlarga ajratganmiz: giperkserofitlar – eng yuqori darajada qurg'oqchilikka moslashgan o'simliklar (masalan, saksovol, chog'on); kserofitlar – teresken, izen



kabi o'simliklar; gemikserofitlar – yantoq singari o'simliklar va boshqalar.

Bu o'simliklarning barchasi yaylov hosildorligini oshirishda juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, izen – hozirgi kunda eng samarali yaylov o'simliklaridan biri sifatida tan olingan. Masalan, G'azalkent atrofida ekilgan izen 15 yil davomida hosil berib turdi. Chorva uni yeyayotgan bo'lsa ham, o'simlik yana ko'karib chiqaveradi. Shuning uchun izen, teresken, chog'on kabi turlarni ekish hozir ham dolzarb masalalardan biridir.

Iqlim o'zgarib, havo isiyapti, suv tanqisligi kuchaymoqda. Bu o'simliklar esa suvga tejamkorlik, ildizlari chuqur yoki barglari kichik bo'lgani sababli namni saqlab tura oladigan turlardir.

Yaqinda shogirdim Nurbek Qo'chqorov bilan tuproqdan emas, balki havodan namlik oladigan o'simlikni aniqladik. Bu iqlim o'zgarishi sharoitida nihoyatda muhim kashfiyot. Bu o'simlik havodagi namni o'zlashtirgan holda o'sadi. Biz buni dalada ham, Botanika bog'ida ham maxsus asbob-uskunalar yordamida o'rgandik. Chorvachilikni rivojlantirish zarurati oshib borayotgan hozirgi paytda bunday o'simliklarni ko'paytirish nihoyatda muhim. Suv tanqisligi mavjud sharoitda havodan nam oladigan o'simliklar – kelajak uchun juda katta imkoniyat.

– Ekologik muammolar haqida ko'p gapirdik, ammo ko'pincha ekologik tarbiya e'tiborimizdan tushib qolyapti.

– To'g'ri aytdingiz. Ekologik tarbiyani maktabdan boshlash kerak. Bolalar, avvalo, atrof-muhit tozaligining qadriga yetishi, havo, suv, tuproqning ozodaligi inson salomatligiga qanday ta'sir qilishini bilishi lozim. Chunki organizm bilan tabiat o'rtaqidagi bog'liqlik nihoyatda kuchli. Bu nafaqat o'simliklar, balki hayvonlar, hasharotlar, mikroorganizmlar uchun ham birdek muhim.

Har bir inson – yosh bo'ladimi, kattami – ekologik madaniyatga ega bo'lishi shart. Chunki hayot-mamot masalalari ham, tabiatning kelajagi ham aynan ekologik ongga bog'liq. Odamlar qo'lidagi qog'oz parchasi, plastik idish va boshqa chiqindilarni duch kelgan joyga tashlab ketar ekan, musaffo havo va toza hudud haqida o'ylash befoyyda. Kim o'zining uyida pista yo saqichni gilamga tashlaydi? Mana shu Vatani, mana shu mintaqa ham ko'z uyimiz. Shu havodan biz nafas olamiz, bolalarimiz nafas oladi.

Ekologik madaniyat, qonun jazo belgilagan-belgilamaganidan qat'i nazar, kuzatuv kameralari bor-yo'qligiga qaramay, tabiatga zarar yetkazuvchi ishlardan o'zini ongli tiyib turishda ko'rinadi. Menimcha, har bir joyda ekologiya nimaligini, atrof-muhitning inson salomatligi uchun qanchalik muhimligini tushuntira olsak, maqsadga yetgan bo'lamiz.

Agar hammamiz ekologiyaning rivojlanishiga birdek hissa qo'shsak va bu bilimni kengaytira olsak, yaxshi natijalarga erishish mumkin. Odam doim yaxshi niyat qilib, unga intilishi kerak.

Bir haqiqatni unutmaylik: chetdan kelib hech kim iqlim va ekologiya muammolarini hal qilib bermaydi. Hammasi o'z qo'limizda!

– Samimiy suhbatingiz uchun tashakkur!

Vasila HABIBULLAYEVA suhbatlashdi.



OG‘AMIZ OMON BO‘LSINLAR!

Men Murodboy Nizanov bilan ilk bor 2004-yilda tanishganman... Yo‘q, adashdim. Bu insonni ancha avvalroq, o‘spirin chog‘larimda iste‘dodli ijodkor sifatida taniganman. Maktabda o‘qib yurgan paytlarimda adabiyotga havasim baland edi. Qo‘limga tushgan kitob va gazeta-jurnallarni ishtiyoq bilan mutolaa qilaman. Kolxozda brigadir bo‘lib ishlaydigan rahmatli amakim o‘zi obuna bo‘lgan “Yoshlik”, “Sharq yulduzi”, “Mushtum” jurnallarini o‘qib bo‘lgach, menga berardi.

Ana shu kezlarda Murodboy Nizanovning ajoyib-g‘aroyib hajviyalari, hangoma va hikoyalari o‘qib, sodda va samimiy qoraqalpoq xalqiga mehrim tushgan...

Taqdir taqozosi bilan 2004-yilning oxirlarida “O‘zbekkino” milliy agentligining hujjatli filmlar tahririyatida muharrir sifatida ish boshladim. Murodboy Nizanov bu paytda “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasiga rahbarlik qilarkan. Ikki yilcha burun u kishining asari asosida suratga olingan “Tanka” filmi o‘zbek tomoshabinlari orasida ham mashhur bo‘lib ketgan edi. Ochiq‘i, tabiatan og‘ir-vazmin va kamsuqum bo‘lgan bu insonning taniqli yumorist adib ekaniga ishonish qiyin. Qolaversa, shuncha yil yonma-yon ishlab, biron marta hazil-huzul qilgani yoki ichakuzdi latifalar aytib kuldirganiga guvoh bo‘lmaganman.

Murodboy og‘ani qoraqalpoq kinოსining haqiqiy jonkuyari sifatida tanigan. Har gal Toshkentga tesha tegmagan mavzularda yozilgan ssenariylar bilan kelar, ularni badiiy kengashda ma‘qullatib, “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasida ishga tushirib yubormaguncha qaytib ketmasdi. Murodboy Nizanovning sa‘y-harakatlari bilan tez orada “Qoraqalpoqfilm” eng namunal kinostudiyalardan biriga aylandi. Bu yerda To‘raniyaz Qalimbetov, Bahavatdin Baymurzayev, Damir Abdimuratov, Asenbay Asqarov singari iste‘dodli rejissyor va operatorlar qiziqarli hujjatli filmlarni suratga olishar, Murodboy og‘a esa shuncha ishlardan ortib, ularning aksariyatiga o‘zi ssenariy yozardi.

Endi o‘ylab ko‘rsam, o‘sha kezlarda “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasida ijodiy jarayonlar o‘zining cho‘qqisiga ko‘tarilgan ekan. Buning asosiy sababi, Murodboy og‘a iste‘dodli kino ustalarini bir yerda jamlab, ularga hamma sharoitlarni yaratib bergandi. O‘zi ham ular bilan bab-baravar ijod qilib, yangi-yangi g‘oyalar ustida tinimsiz izlandi, “Qoraqalpoqfilm”ni har tomonlama rivojlantirdi. Iqtisod qilingan mablag‘lar hisobidan kinostudiyaning ikki qavatli kattagina binosini ta‘mirdan chiqarib, zamonaviy kinokameralar va montaj jihozlarini sotib oldi. “O‘zbekkino” milliy agentligining Qoraqalpoq‘istonga borgan vakillari ushbu kinostudiyaning faoliyatidan ko‘ngli to‘lib qaytadigan bo‘ldi.

– Hujjatli kino olishni allaqachon o‘rganib oldik, – dedi Murodboy og‘a bir gal Toshkentga kelganida. – Endi marrani balandroq olib, qoraqalpoqlar haqida badiiy kinolar suratga olish niyatimiz bor. Bunga kuchimiz ham, imkoniyatimiz ham yetadi. Yaxshi niyatda bitta ssenariy ham yozib kelganman.

Chindan ham, qoraqalpoq tilida katta kinolar yaratish vaqti allaqachon yetgan edi. “Tanka” ming zo‘r bo‘lgani bilan “O‘zbekfilm” kinostudiyasida suratga olingan. Men u kishi bergan ssenariyni tezda o‘qib chiqdim. “O‘g‘ri” deb nomlangan komediya janridagi asar juda samimiy yozilganiga amin bo‘ldim. Murodboy og‘aning fikri “O‘zbekkino” milliy agentligining o‘sha vaqtidagi rahbari A‘zam Is‘hoqovga ham ma‘qul bo‘ldi.

– Biroq bu yilgi mablag‘lar allaqachon taqsimlab bo‘lingan, – dedi u kishi. – Hozir ortiqcha pul yo‘q. Kelgusi yilgacha sabr qiling.

– Filmning smetasini tayyorlab qo‘yganman, – dedi Murodboy og‘a bo‘sh kelmay. – Ko‘p xarajat ketmaydi. Siz ikki-uchta hujjatli filmning mablag‘ini bersangiz yetadi. Qolganini o‘zim topaman.

Tez orada film ishga tushirilib, Bahavatdin Baymurzayev unga postanovkachi rejissyor etib tayinlandi. Murodboy Nizanov uni oxiriga yetkazish uchun tinimsiz harakat qildi. Qoraqalpoq‘istondagi qator tashkilotlar rahbarlari, mahalliy hokimlarga iltimos qilib, ulardan ham ozmi-ko‘pmi ko‘mak oldi. Xullas, birinchi qoraqalpoq badiiy kinosi hashar yo‘li bilan qisqa muddatlarda tasvirga olindi. Shundan so‘ng kinostudiyada birin-ketin komediya va melodrama janridagi “Kurort”, “Qo‘shnilar”, “O‘qilmagan xat”, “Umrning uch fasli”, “Mehrigiyoh”, “Qo‘rg‘on” singari badiiy filmlar dunyo yuzini ko‘rdi.

“Kurort” filmini yaratish jarayonida Murodboy og‘a kattagina ijodiy guruhni azza-bazza poytaxtga boshlab kelib, uning ma‘lum qismini “Chinobod” sanatoriysida tasvirga oldi. Bu kartina professional kamerada suratga olingani bois, sifati ham ancha baland edi. Ushbu filmning Nukusdagi premerasida men ham qatnashdim. Kinostudiyaning mahalliy ziyolilar, oddiy tomoshabinlar bilan to‘lib-toshgan shinamgina zalida taqdimot juda ko‘tarinki, bayramona ruhda o‘tdi. Namoyish tugab, ijodkorlar sahnaga chiqqanida, zalni gulduros olqishlar tutib ketdi.

Ushbu filmlarning aksariyatida qoraqalpoq ijodkorlari bilan birga Erkin Komilov, Aida Yunusova singari bir guruh taniqli o‘zbek san‘atkorlari ham esda qolarli rollarni ijro etishdi. Murodboy Nizanov ssenariylari asosida tasvirga olingan mazkur filmlarning aksariyatida o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining azaliy qardoshligi, bir-biriga samimiy mehr-oqibati hamda quda-andalik rishtalariga alohida urg‘u berilgan.

Kamina ushbu filmlarning yaratilishida ozmi-ko‘pmi hissam borligidan doimo faxrlanib yuraman. Zotan, ularni qoraqalpoq tilidan o‘zbekchaga o‘g‘irish, badiiy kengash muhokamasidan o‘tkazish va bildirilgan taklif-mulohazalar asosida qayta ishlashdan tortib, suratga olish, ovozlashtirish va tomoshabinlarga taqdim qilishgacha bo‘lgan jarayonlarda tarjimon va muharrir sifatida ishtirok etganman. Kezi kelganda, “Qo‘shnilar” komediyasi ssenariysini Murodboy Nizanov bilan hammualiflikda yozganimizni ham ta‘kidlashni joiz deb bilaman.

Ochiq‘ini aytganda, ushbu ssenariylar “O‘zbekkino” milliy agentligi badiiy kengashida jiddiy bahsmunozaralarga ham sabab bo‘lgan. Kengashning ayrim a‘zolari ssenariylarning mazmuni va saviyasiga e‘tiroz bildirib, “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasi hali katta kino olishga tayyor emas, deb oyoq tirab turib olishardi. Shunday kezlarda A‘zam Is‘hoqov: “Qoraqalpoqlar Gollivud darajasidagi filmlar yaratma olmasligi mumkin, biroq o‘zlarining tomoshabinlari qabul qilsa, shuning o‘zi kifoya. Ularga ishonib, imkoniyat bersak, asta-sekin hammasi joyiga tushib ketadi”, deb barcha mas‘uliyatni zimmasiga olardi.

Chindan ham, filmdan filmga kinostudiya kinoijodkorlarining mahorati o‘sib bordi. Muhimi, ular yaratgan kino asarlarida qoraqalpoq xalqining milliy xarakteri, hayot tarzi juda ishonarli tasvirlanar, aktyorlarning ijrosi ham hayotga yaqin va samimiy bo‘lardi. Shu bois, mazkur filmlarni Nukusda ham, Toshkentda ham tomoshabinlar birday katta qiziqish bilan qarshi olardi.

Nuuk shahriga yo‘l oldi. Ushbu missiya Daniya hukumati taklifiga binoan amalga oshirilmoqda.

ISROIL BMTDAN UZOQLASHMOQDA
Isroil tashqi ishlar vaziri Gideon Saar mamlakat BMTning 7 ta agentligi va unga qarashli tuzilmalar tarkibidan chiqishini e‘lon qildi. Bu haqda The Jerusalem Post xabar berdi.



Quddus ushbu qarorini mazkur tashkilotlarning Isroilga nisbatan adovatli munosabati hamda “samarasiz byurokratiya” bilan izohladi.

HARBIY HOLAT MUDDATI UZAYTIRILDI
Ukraina Oliy radasi mamlakatda harbiy holat va umumiy safarbarlik muddatini 90 kunga uzaytirish haqidagi qonun loyihasini

Poytaxtimizdagi Alisher Navoiy nomidagi milliy kino saroyida o‘tkazilgan qoraqalpoq filmlari taqdimotlarida zalda bot-bot kulgi va gulduros olqishlar yangragani haligacha yodimda.

Yillar davomida Murodboy Nizanov ikkovimiz og‘a-inidek yaqin va hamfikir bo‘lib qoldik. Men bu insonning tinimsiz izlanadigan, nihoyatda mehnatkash ijodkor ekaniga ishonch hosil qilganman. Garchi u kishi kinostudiya rahbari bo‘lsa-da, bir zum ham ijod qilishdan to‘xtamaydi. Bir gal mehnat ta‘tiliga chiqib, Yozuvchilar uyushmasining “Do‘rmon” ijod uyida ikki-uch haftada butun boshli romanni yozib tugatganiga guvoh bo‘lganman.

E‘tiborli jihati, uzoq yillar davomida asosan satira va yumor janrida qalam tebratib kelgan Murodboy Nizanov bu davrda birin-ketin salmoqli qissa va romanlar yaratib, o‘zini epik ko‘lamdagi adib sifatida ham namoyon qildi. Yashirmayman, ana shu asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish men uchun ham chinakam tajriba va mahorat maktabi vazifasini o‘tadi.

Esimda, ilk bor Murodboy Nizanovning “Aqchagul” qissasini o‘zbek tiliga o‘g‘irganman. O‘sha kezlarda bu asar adabiy jamoatchilik orasida ancha tilga tushdi. O‘zbekiston Qahramoni, atoqli shoirimiz Abdulla Oripov mazkur qissani Chingiz Aytmatov asarlariga qiyoslab, 2007-yilda o‘tkazilgan “Istiqlol: zamonamiz qahramonlari” adabiy tanlovining bosh mukofoti bilan taqdirlagan edi.

Tanlov hay‘ati qissani o‘zbek tiliga tarjima qilish va kitob holdida chop etishga qaror qiladi. Biroq tarjimon masalasida muammo tug‘ilib, bu ish ancha ortga suriladi.

Murodboy og‘a bir gal Toshkentga kelganida shu haqda kuyinib gapirib qoldi.


– Balki men bir urinib ko‘raman, – dedim.
– Agar tarjimaning zahmatidan qochmasang, bu ish qo‘lingdan kelishini bilaman, – dedi u kishi ishonch bilan.

Tez orada “Aqchagul”ning tarjimasiga kirishib ketdim. Abdulla Oripovning ta‘riflaganicha bor ekan. Aqchagul ismli oddiy qoraqalpoq ayolning fojiali taqdiriga bag‘ishlangan asar juda katta dard va iztirob bilan yozilganiga ishonch hosil qildim. Go‘zal va aqli raso Aqchagul ne-ne orzu-umidlari bilan o‘zi yotqirgan Nurjon ismli oddiy yigitga turmushga chiqadi. Dastlab hammasi yaxshi kechayotgan edi. Birin-ketin oilada farzandlar dunyoga keladi. Biroq o‘sha kezlarda yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli Nurjon ishsiz qolib, noshud va notavon holga tushadi. Shundan so‘ng Aqchagul och va yupun oila yukini yelkasiga oladi. U eri va farzandlarini boqish ilinjida kun bo‘yi zil-zambilday tog‘oralarni ko‘tarib, ko‘cha-ko‘yda odamlarga taom sotadi. Kechqurun horib-charchab qaytgach, yarim tungacha ro‘zg‘or tashvishlari bilan andarmon bo‘ladi. Tong bo‘zarmasdan yostiqdan bosh ko‘tarib, yana qozonga unnaydi.

Hartugul, uning mashaqqatli mehnatlari tufayli ro‘zg‘orga baraka kirib, farzandlarining qorni to‘q, egni but bo‘la boshlaydi. Biroq Aqchagul qanchalik tirishqoq, uddaburon bo‘lgani bilan baribir sodda va ishonuvchan ayol edi. Hammani o‘zi kabi oqko‘ngil, samimiy odamlar deb o‘ylaydigan shor‘lik ayol fosiq va badkirdor kimsalarning zimdan to‘qigan tuzog‘iga tushganini sezmay qoladi. Oqibatda uning hayoti ostin-ustun bo‘lib ketadi. Ayollik sha‘ni, or-nomusi toptalgan sitamzada Aqchagulning adolatsizlik va qabihliklarga qarshi isyoni fojia bilan yakun topadi...

Mahoratli adib ana shunday og‘ir voqealar

qabul qildi. Loyihani Ukraina prezident



Shunday qilib, Ukrainadagi harbiy holat rejimi 3-fevraldan 4-maygacha uzaytirildi. Qonun loyihasini 330 nafar xalq deputati qo‘llab-quvvatladi (eng kami 226 ovoz talab etiladi). Yana 312 ovoz bilan Ukraina parlamenti umumiy safarbarlik muddatini ham 90 kunga uzaytirdi.

DUNYONING ENG BOY ODAMLARI



qalamga olingan asarni ham kelajakka ishonch va umid hissi bilan yakunlaydi. Marhumaning xorijda o‘qib qaytgan to‘ng‘ich qizi Arzoyim kutilmagan ayriqliqdan qaddi dol bo‘lgan otasi va ko‘ngli cho‘kkan ukalariga bosh bo‘lib, yangi hayot boshlaydi. Zotan, Aqchagulni doimo oldinga undagan g‘ayrat-shijoat va aql-zakovat unga meros bo‘lib o‘tgan.

Murodboy Nizanov ushbu ixchamgina asarida mushfiq ayol zotining nozik yelkasiga zilday og‘ir vazifalarni yuklab, ularni xo‘rlik va tahqirlarga giriftor qilishning ayanchli oqibatlarini yaqqol ko‘rsatib berdi.

Tez orada “Aqchagul” qissasi taniqli adib Nosir Fozilov so‘zboshisi bilan e‘lon qilindi. Qissa Yozuvchilar uyushmasining nasr kengashida yilning eng yaxshi asarlaridan biri sifatida e‘tirof etildi.

Shundan so‘ng Murodboy Nizanov asarlarini tarjima qilishdan ortmay qoldim. Og‘amiz ham atay qilgandek, hali qarasang yangi roman ko‘tarib keladi, keyingi gal siyohi qurimagan qissani stolimga qo‘yib ketadi. “Oxirat uyqu”, “Dushman”, “Muhabbat qo‘shig‘i”, “Oshiq bo‘lmagan kim bor”, “Darbadar” romanlari, “Ikki qotil” qissasi, “Qoraqalpoqlar” deb nomlangan salmoqli tarixiy-ma‘rifiy risolalarning birinchi va ikkinchi jildlari, qoraqalpoq‘istonlik mashhur davlat va jamoat arbobi Qallibek Kamolov hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan “Bir asrlik umr” kitobi, o‘ndan ortiq ssenariylar...

Adibning yuqorida tilga olingan ko‘lamdor romanlari haqida birma-bir to‘xtalsak, gapimiz cho‘zilib ketadi. Bir qator taniqli adabiyotshunoslarimiz ushbu asarlarni batafsil tahlil qilishgan. Kelgusida ham Murodboy Nizanovning qissa va romanlari haqida salmoqli tadqiqotlar yozilishiga ishonchimiz komil. Faqat shuni aytishim mumkin, bu asarlarda qoraqalpoq xalqining og‘ir va mashaqqatli kechgan bir necha asrlik tarixi, betakror qadriyat va an‘analari, oddiy insonlarning ibratli fe‘l-atvori, beg‘ubor ichki dunyosi manaman deb bo‘y ko‘rsatib turadi.

Ushbu maqolani yozish asnosida Murodboy og‘aning o‘zim tarjima qilgan asarlarini birma-bir sanashga urindim. Lekin hikoya, hajviya va ocherklarning hammasini ham eslolmadim. Taassufki, e‘tiborsizlik tufayli ularni bir joyga to‘plab yoki ro‘yxatini tuzib qo‘ymagan ekanman.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, Qoraqalpoq‘iston xalq yozuvchisi, “Do‘stlik” ordeni sohibi, zahmatkash adib Murodboy Nizanovning o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan asarlari hali juda ko‘p. Agar kimdir shu ishga bel bog‘lasa, uzoq yillar ter to‘kishiga to‘g‘ri keladi. Murodboy Nizanov ana shunday sermahsul, mehnatkash adib. Muhimi, u kishining bironta asari qo‘l uchida yozilmagan. Har biri o‘ziga xos va betakror, katta iste‘dod va yuksak mahorat bilan bitilgan.

O‘rni kelganda, hech ikkilanmasdan bir gapni aytib qo‘ymoqchiman: Murodboy Nizanov o‘zining keng gamrovli ijodi, teran badiiy-falsafiy tafakkurga asoslangan ko‘lamdor asarlari orqali zamonaviy qoraqalpoq adabiyotining Jo‘lmirza Oymirzayev, To‘lepbergen Qaipbergenov, Ibroym Yusupov singari dargalari safidan munosib joy olib ulgurdi. Bunga zarracha shubham yo‘q.

Darvoqe, Murodboy Nizanov 2013-yilning kuzida kutilmaganda kinostudiya rahbarligidan ketdi. Afsuski, “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasiga o‘n yil rahbarlik qilib, uning oyoqqa turib olishiga sababchi bo‘lgan, milliy adabiyotimizning peshqadam vakillaridan biri bo‘lgan adibni attestatsiyadan

Dunyoning eng boy 20 nafar milliarderining jami sarmoyasi taxminan 3,8 trillion dollarni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich aksariyat davlatlarning yillik yalpi ichki mahsulotidan yuqori. Bu haqda Forbes nashri ma‘lum qildi.

Boyligi 714,2 milliard dollar deb baholalanayotgan Ilon Mask tarixda sarmoyasi 700 mlrd dollardan oshgan birinchi insonga aylandi. 2020-yildan beri Maskning sarvati deyarli 30 baravar ko‘paygan.

Google asoschilaridan biri Larri Peyj 257,7 milliard dollar sarmoya bilan reytingda ikkinchi o‘rinni egallab turibdi.

TANKERLAR HUJUMGA UCHRADI



Qozog‘iston neftini tashuvchi ikkita tanker Qora dengizda hujumga uchradi. Hodisalar Kaspiy quvur konsorsiumi dengiz terminali yaqinida sodir bo‘lgan. Bu haqda Qozog‘iston Energetika vazirligi xabar berdi.



o‘tkazishmadi. Agar shu bilan kinostudiyaning ishlari yanada gurkirab ketganida, bugun bu voqeani tilga olib o‘tirmasdik. Afsuski, amalda buning teskarisi bo‘ldi...

Murodboy og‘a o‘zining avvalgi kasbi bo‘lmish noshirlik sohasiga qaytib, qator yillar Nukusdagi “Bilim” nashriyotiga rahbarlik qildi. Bu yerda ham tinch o‘tirmay, nashriyotni rivojlantirish uchun yeng shimarib ishga kirishib ketdi. Toshkentga yanada serqatnov bo‘lib qoldi. Poytaxtdagi qator vazirlik va idoralardan buyurtmalar olib, qoraqalpoq tilidagi darslik va adabiyotlarni chop etishni yo‘lga qo‘ydi. Natijada qisqa fursatlarda ushbu nashriyotning ham ishlari yurishib, xodimlarining kosasi oqarib qoldi.

O‘tgan yili Murodboy og‘a o‘z ixtiyori bilan nashriyot direktorligidan iste‘fo berdi.

– Yoshim anchaga borib qoldi, bu yog‘iga sog‘lig‘imni o‘ylamasam bo‘lmaydi, – dedi u kishi kutilmagan qarorini izohlab. – Bundan buyon uyda bemalol oyoqni uzatib, oqliqlarni” erkalatib o‘tirmoqchiman.

O‘shanda “men bilgan Murodboy Nizanov uyda tinchgina nevara suyib o‘tirishi mumkin emas”, degan o‘y ko‘nglimdan o‘tdi. Shunday ham bo‘ldi. Tez orada og‘amiz o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining qardoshligi mavzusiga bag‘ishlangan “Ko‘pri” deb nomlangan yangi, ajoyib ssenariyni kaminaga yubordi. Kuni kecha tezkor pochta xodimi u kishining atoqli qoraqalpoq shoiri Berdaq haqida yozilgan yangi asarini qo‘limga tutqazib ketdi. Xullas, Murodboy og‘a omon bo‘lsalar, biz singari tarjimonlarga ish topiladi.

Yangi yil arafasida u kishi allamahalda qo‘ng‘iroq qilib, bayram bilan tabrikladi.

– Umr vafo qilsa, kirayotgan yilda 75 yoshga to‘laman, – dedi so‘ng maqsadga ko‘chib. – Farzandlar bilan shogirdlar “yubileyingizni o‘tkazamiz” deb bel bog‘lab turibdi. Shunga Toshkentdan ham qo‘noq aytmoqchiman. O‘zing ularni boshlab kelasan.

Bu taklifdan xursand bo‘ldim. Chunki aynan Murodboy og‘aning asarlari orqali kashf etganim – bepoyon qoraqalpoq diyorini, ushbu zaminda yashaydigan daryodil insonlarni anchadan beri sog‘inib, shu tomonlarga oyog‘im tortib yurgan edi. Shuning uchun u kishiga “Nasib etsa, albatta boramiz”, deb va‘da berdim.

Yana nima ham deyman. Tez orada tavallud to‘yigizda ko‘rishguncha omon bo‘ling, Murodboy og‘a!

G‘afur SHERMUHAMMAD, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi

‘Oqliq – qoraqalpoq tilida “nabira”.

Unga ko‘ra, birinchi hodisa Malta bayrog‘i ostidagi “Matilda” tankeriga tegishli bo‘lib, u “KazMunayGas” milliy kompaniyasining sho‘ba korxonasi tomonidan ijara olingan. Kema dron hujumi ostida qolgan.

Ikkinchi hodisa esa Liberiya bayrog‘i ostidagi “Delta Harmony” tankeriga tegishli bo‘lib, u hujum vaqtida neft yuklashni kutayotgan bo‘lgan.

QOCHISHGA TAYYORGARLIK
Eron yetakchilari mamlakatdagi o‘lim bilan yakunlanayotgan norozilik namoyishlari fonida “kemani tark etish”ni boshlaganini va o‘nlab million dollarni mamlakatdan olib chiqib ketayotganini AQSH moliya vaziri Skott Bessent Newsmax nashriga ma‘lum qildi.



“Ayni damda kemadan qochayotgan kala-mushlarni ko‘ryapmiz, chunki Eron rahbariyati tomonidan millionlab, o‘n millionlab dollar-niing mamlakatdan yashirincha o‘tkazilayot-ganini kuzatyapmiz”, dedi Bessent.

JAHON AYVONIDA

GRENLANDIYA NECHA PUL?
AQSH prezidenti Donald Trampning Grenlandiyan qo‘lga kiritish rejasi mamlakatga 700 milliard dollarga tushishi mumkinligi ma‘lum bo‘ldi. Bu haqda The Independent xabar berdi.



Tramp Daniya hududi hisoblangan ushbu orolni “u yoki bu yo‘l bilan” egallashga va‘da bergan, biroq Daniya va Grenlandiya hamda Yevroosiyo rasmiylari bu bayonotlarni keskin rad etib kelmogda.

AQSHning tahdidlari fonida Fransiya va Germaniya boshqa Yevropa davlatlari qatori orolga o‘z qo‘shinlarini yuborishini ma‘lum qildi. Germaniya Mudofaa vazirligining bildirishicha, Bundesverning 13 kishilik razvedka guruhi kecha Grenlandiya poytaxti



MILLAT FIDOYLARI

Sobiq tuzumning qatag'on davrida begunoh kishilarni "xalq dushmani" degan dahshatli ayblov bilan hibsga olish, otib yuborish sotqin va tamagir amaldorlarga kamdek ko'ringan. Ular kommunistik partiya sadoqatini bildirish uchun markazdan tushgan har bir topshiriqni ortig'i bilan ado etish maqsadida ayblovlar doirasini kengaytirgan. Mahkum kim, qaysi jinoyatda aybli deb topilayotganidan qat'i nazar, deyarli barcha ishga Jinoyat kodeksining 58-moddasi qo'shib qo'yilib, "davlatga xiyonat" degan umumiy ayblov shu tariqa odat tusiga kirib qolgan edi. Jumladan, Davron Iskandarov ham ana shunday "reja", ya'ni "odat" qurboniga aylangan.



Davron Iskandarov.

Davron Iskandarov 1903-yili Samarqand okrugi Yuqori Darg'om rayonida oddiy ishchi oilasida tug'ildi. Bu davr Turkiston o'lkasi uchun ijtimoiy tengsizlik, g'oyat og'ir mehnat va yo'qsillik hukm surgan yillar edi. Qahramonimizning otasi Samarqand shahridagi g'isht zavodida qariyb o'ttiz besh yil mehnat qilib, ro'zg'or tebratadi.

Davron bolalik yillaridayoq ana shu mehnat muhitida ulg'aydi. Kunlari o'qishdan ko'ra ko'proq g'isht zavodida o'tardi. Shu bois, oldiniga tayinli xat-savod chiqarishning imkonini bo'lmadi. Garchi 1915-yilga qadar otasi qaramog'ida o'sgan bo'lsa-da, mehnatlar bolakayni tez ulg'aytirib qo'ydi, bola bo'lib bolalik ko'rmadi. Oldiniga el qatori mahalliy sharoitda savod chiqardi. Biroq Birinchi Jahon urushi va undan keyingi yillarda iqtisodiy tanglik ortidan oila g'isht zavodidan kelib turadigan birdan bir daromadidan ham aytilar uzildi. Davron o'zi shusiz ham uzoq-yuluq davom etayotgan o'qishini to'xtatib, o'zini tamoman mehnatga urdi.

1915-1918-yillar oralig'ida qishlo-g'idagi bir boynig mol-holini yetovlab boqib, shu zayl oilasiga ko'mak bergan bo'ldi, cho'ponlik qildi. Hali yosh Davronning ilmi ham, o'qishi ham, sabri ham, chidami ham shu - dala-dasht bo'ldi. Bu yillar uning hayotida qishloq turmushidagi tengsizlikni anglash

uchun qulay palla ham edi. Chunki bevosita o'zi guvoh bu manzaralar uning dunyoqarashiga sekin-asta ta'sir qilib, hayotga munosabatini shakllantirib bordi. 1918-yildan boshlab Davron Iskandarov otasi bilan ishlagan o'sha g'isht zavodiga qaytdi. Bir mahalllar bola bo'lib kuzatgan muhitga endi to'laqonli ishtirokchi sifatida kirib keldi.

1921-1924-yillarda shahar ustaxonalarida ish o'rgandi, shogirdlik qildi. Inqilobdan keyingi yillarda Samarqand kabi shaharlarda ishchilarga talab ortib, ustaxonalar yangi hayot tartibini boshdan kechirayotgan edi. Ayni paytda ustaxonalar shunchaki mehnat joyi emas, turli suhbat va bahslar kechadigan ko'zdan pana makon ham edi. Kechagina cho'pon, g'isht zavodida ishchi bo'lgan qahramonimiz endi o'zini davlat ishlariga daxldor his qila boshladi. Chala qolgan o'qishini ham mustahkamlab bordi. Davr bilan hamnafas bo'lishga intildi. Ana shu yillar uni oddiy ishchi muhitida pishitib, keyinchalik jamoat va partiya faoliyatiga olib chiqqan yo'lining boshlanish nuqtasi bo'ldi. Va afsuski, qahramonimizni turli bo'htonlarga yo'lliqirib, kurakda turmas, yo'q aylarni bo'yniga ilib, terror girdobiga tortib ketgan ham... mana shu yillar, yo'llar edi.

1925-yilda partiya qabul qilinishi bilan Davron Iskandarov Samarqand-dagi okrug sovet-partiya maktabiga yuboriladi. Ilgari mehnat muhitida toblangan yosh ishchining hayot tajribasi endilikda muayyan mafkuraviy qoliplar ichiga solina boshlanadi. Bu jarayon shaxsning ichki ehtiyojlaridan ko'ra, davr talabiga mos keladigan, boshqaruvga qulay kadrlar tayyorlash maqsadini ko'zlar edi. Keyinchalik aynan shu tayyorgarlik oddiy ishchining taqdirini siyosiy jarayonlar bilan bog'lab qo'ygan zanjirning muhim halqasiga aylanadi.

O'qishni tamomlagach, Davron Iskandarov partiya tashkilotchisi sifatida turli hududlarda ishga jalb etiladi. 1927-1930-yillarda u Samarqand okrugi hamda qator tuman partiya qo'mitalarida kotiblik, tashkiliy bo'lim



mudirligi kabi lavozimlarda faoliyat olib boradi. Bu yillar mamlakatda jamoalashtirish siyosati jadallashib, ma'muriy boshqaruv tobora qat'iy tus olayotgan davrga to'g'ri kelgan.

Ayni sharoitda ishchi oilasidan chiqqan, mehnatkashlar turmushini yaxshi bilgan kadrlar partiya apparati uchun o'ta zarur hisoblanardi. Bunday shaxslar orqali markaz siyosatini mahalliy muhitga singdirish, yangi tartib-qoidalarni joriy etish osonroq kechardi.

1930-yillar boshida Davron Iskandarovning xizmat yo'li yanada kengayib, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti tizimida mas'ul vazifalarga jalb etiladi. Keyinroq tuman partiya qo'mitasi kotibi sifatida ishlay boshlaydi. Bu lavozimlar tashkiliy ishlarni yuritish bilan birga, beqaror siyosiy vaziyatda ehtiyohtonora harakat qilishni-da talab etar edi.

1931-yildan e'tiboran Davron Iskandarov Toshkentdagi O'rta Osiyo marksizmleninizm institutiga o'qishga yuboriladi. Bu o'quv dargohi o'sha davrda partiya-davlat tizimi uchun kadrlar tayyorlashda muhim bo'g'in hisoblanardi. Institutda o'qib-o'rganar ekan, qahramonimiz birvarakayiga partiya tashkiloti kotibi sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shu yo'sinda uning hayot yo'li tobora

Jamiyatda sarosima kayfiyati avj olib, kechagina to'g'ri yo'lda deb hisoblangan shaxslar ham shubha ostiga olina boshladi. 1936-1937-yillarda "xalq dushmanlari"ni fosh etish siyosati ommaviy tus olgach, ilgari partiya sadoqati, tajribasi bilan maqtal-gan kadrlar endi millatchilik, burju-aksilingilobiy faoliyatda ayblana bosh-ladi.

1937-yilning noyabr oyida Davron Iskandarov "aksilingilobiy millatchi tashkilot a'zosi" deb hibsga olinadi. Tergov materiallarida unga O'zbekistonni SSSRdan ajratish, sovet hokimiyatini qurolli yo'l bilan ag'darish, qishloq xo'jaligi sohasida qasddan zarar yetkazish kabi jinoyatlar tirkaldi. Bu ayblovlar o'sha yillarda ko'plab partiya va jamoat xodimlariga nisbatan qo'llanilgan umumiy qoliplardan farq qilmas edi.

Tergov jarayonlarida qahramoni-miz bo'yniga ilib qo'yilayotgan barcha ayblarni keskin rad etib, ularning haqiqatga to'g'ri kelmasligini bildirdi. Biroq o'sha eski gap - o'rmonga o't ketsa, ho'u-u quruq baravar yonadi. Tergovchilar o'z qarshisida turgan shaxs uchun ko'r va kar edi. Ayblov xulosasi bunga qadar allaqachon shakllantirib bo'lingan, inson taqdiri sariq chaqaga arzimasi edi.

1938-yil 5-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida Davron Iskandarov ishi yopiq tarzda ko'rib chiqiladi. Sud jarayoni qatag'on yillariga xos tartibda - hech qanday guvohlarsiz, himoyachi ishtirokisiz o'tadi. Sud juda qisqa vaqt ichida Davron Iskandarovni O'zSSR Jinoyat kodeksining 58-, 63-, 64- va 67-moddalari bo'yicha aybdor deb topib, otuvga hukm etadi. Hukm o'sha kunioyq ijro etiladi.

Ishchi oilasida tug'ilib, og'ir mehnat muhitida voyaga yetgan, oddiy cho'pon-likdan ustaxonaga, u yerdan esa partiya apparatiga chiqqan bo'lgan yo'lni bosib o'tgan Davron Iskandarov shu tariqa 35 yoshida qatag'on girdobiga tortilib ketdi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

TARIXDAN SADO

"Qatag'on qurbonlari" kitobi-ni varaqlar ekansiz, sovet tuzumining qonli objuvozi ming-minglab begunoh insonlarning hayotini barbod qilganiga amin bo'lasiz. Kitobdagi Navoiy viloyatiga oid ro'yxatda g'ozg'onlik to'rt nafar yurtdoshimiz nomi qayd etilgan.

Zoirov Juma, Kamolov Karim, Musayev Ismoil, Turdiyev Abdurahimlar soliq komissiyasining yig'ilish qarori bilan 1930-yillarda quloq qilinib, mol-mulki davlat foydasiga musodara qilinadi. Lekin sovet yuhosi shu bilan qanoatlanmay, "aybdor"larni qabrga tiqmaguncha tinchilmaydi.

Bu to'rt jafokashning aybi nima-yu, nega jazoga tortilgan, degan savolga, afsuski, jo'yali javob topish qiyin. Nega? Chunki ular aybsiz aybdorlar edi. Ularning "ayb"i - yo'qsil



bo'lmagani, aksincha, savodli bo'lgani, oq-qorani tanigani, sovet tuzumining asl qiyofasini anglagani edi. Aslida, ular el-yurt manfaati uchun yashagan, tayin kasb-korli, tadbirkor, halol topib, halol yashagan insonlar edi.

Faqat mustaqillik davriga kelibgina, bu jafokash insonlar, jumladan, mohir muhandis va tosh-tarosh Abdurahim Turdiyev haqida ham xolis haqiqatlar yuzaga chiqdi. "O'zbekiston tarixi" telekanalida "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi direktori, professor

akasi Abdurasul izidan Buxorodagi Mir Arab madrasasini ixtiyor etadi.

Madrasa davrida u donishmand adib Sadrididdin Ayniyniing yaqin kishisiga aylanadi. Yetti yillik ta'lim nihoyasiga yetgach, Abdulahadxon saroyiga muhandis qilib qoldiriladi. Chunki madrasada diniy ilmlardan tashqari hisob, handasa, tarix singari dunyoviy ilmlar ham o'rgatilar, Abdurahim muhandislik ilmini mahorat bilan o'zlashtirgan edi. U shu sohaga qiziqishi va iqtidori bilan e'tiborga

tushadi, hamisha bir qo'li kitobda, bir qo'li mehnatda bo'ladi. Bilishimizcha, u va akasi Abdurasul Naqshbandiya tariqatiga mansub bo'lib, "Dil ba yor-u dast ba kor" ta'limotini muqaddas bilgan, shu bois, tosh-taroshlik, chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Abdurahim Turdiyev 1900-1905-yillarda Abdulahadxonning Sankt-Peterburgda qurdirgan masjidi, Qrimdagi "Dilkusho" saroyi, Jelevnavodsk(Temir-Suy)dagi sanatoriysi qurilishlarida yetakchi muhandis-quruvchi sifatida muhim va mas'ul vazifaga safarbar etiladi. Qurilishlar tugagach, o'z yurtiga qaytgan Abdurahim bu yerda ham katta bunyodkorlik ishlariga bosh-qoshlik qiladi. Buxorodagi Sitorai Mohi Xossa oromgohi, Karmanadagi Qosim Shayx majmuasida Abdulahadxon dahmasini bunyod etish mas'uliyati yuklatiladi. Amir Olimxon ishiniq pishiq-puxtaligini qadrlab, uni "muhandis" unvoni bilan taqdirlaydi va mukofot sifatida hozirgi Navbahor tumani Beshrabot qo'rg'onidan 50 tanob uzumzor bog' hadya qiladi.

Muhandis shundan so'ng 1910-yillarda Dehibalanda Imomi Hasan va Imomi Husayn masjidi, 1906-1915-yillarda G'ozg'on'da to'rt marmar ustunli, to'qqiz gumbazli marakko uslubiga xos masjid qurilishiga rahbarlik qiladi va bosh usta sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Lekin 20-yillardan boshlab kutilmagan noxush o'zgarishlar yuz bera boshlaydi. 1920-yil 2-sentyabr kuni Buxoro shahri sovetlar tomonidan shafqatsiz bombardimon qilinadi. Shahar vayron etilib, talanadi. Amir xazinasi vagonlarda olib ketiladi. Buxoro amirligi tugatilganidan keyin, uning o'rniga Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etilishi - sovetlarning g'arazli o'yini edi. Respublika tashabbuskorlari va ularga hammaslak bo'lganlar asta-sekin

jinoyatchiga chiqarila boshlaydi. 1923-yilda Fayzulla Xo'jayev atrofida uyushgan "Yosh buxoroliklar" jamiyati a'zolari hokimiyatdan chetlatilib, jiddiy ta'qibga uchraydi. Hurfikir faol millatparvar Abdurahim ham Buxorodan G'ozg'on'ga qaytishga majbur bo'ladi.

Afsuski, bu yerlarda ham notinchilik boshlangan edi. Kutilmaganda uning g'animlari, sovetlar tashabbusi bilan bo'lsa kerak, "ot o'g'rili" voqeasini to'qib chiqaradi va o'g'rilikda muhandisni ayblaydi. Bu Buxoro va Karmanadagi o'nlab qo'rboshi guruhlarni birlashishga va mahalliy xalqni sovetlarga qarshi kurashga da'vat qilayotgan Abdulqahhorga muhandisni yomon ko'rsatish uchun o'ylab topilgan bir nayrang edi. Chunki yo'qolgan ot Abdulqahhorga tegishli edi. Abdulqahhoring madrasadosh do'sti g'ozg'onlik mulla Juma oraga tushib, Abdurahimga bunday ishlar begona ekanini aytadi va unga kafil bo'ladi. Ko'p o'tmay o'g'rilik oshkor bo'lib, haqiqat oydinlashadi. Ot boshqa bir kishidan topiladi.

Hali bu masala sovimay turib, "quloqlashtirish" boshlanadi. Halol mehnatidan daromad qilib, o'ziga to'q yashayotgan muhandis birinchilardan "quloq"qa tortiladi. 1932-yilda uning bor bisoti: 30 tanob yeri, 150 bosh qo'yi, tuyalari, otlari, sigir-u ho'kizlari, butkul hovli-joylari kolxozga o'tkaziladi. Bola-chaqasi uchun bir chetdan katakkdekkinay yarim vayrona bino qoldiriladi. Shaxsiy korxonasi ham yopilib, dongdor usta Nurotadagi shirkatlardan biriga sangtarosh qilib o'tkaziladi.

Zamon og'irlashib, Buxorodagi maslakdoshlari boshiga og'ir kunlar tushayotganini ko'rgan Abdurahim imkonini borida farzandlarini uyli-joyli qilish tashvishiga tushadi. Qizlari Hamida va Hakimani shoshilinch turmushga uzatib, o'g'li Ahmadni uylantiradi. Shubhalanganicha bor

ekan, mamlakatda katta terror boshlanganadi. Sanoqli kundan keyin Fayzulla Xo'jayevning maslakdoshi sifatida uning ham izaiga tushadilar.

1937-yilning 14-noyabrda 60 yoshli muhandis sovet jamiyatiga qarshi ayblovlar bilan so'roqqa tortiladi va badniyat "uchlik" qarori bilan Kattag'o'rg'on'dagi turmaga qamaladi. 1937-yilning 23-noyabr kuni tergovchi Guliyevning bo'hton hujjatlari asosida unga 10 yillik jazo muddati beriladi va hozirgi Xatrichi tumanining Zarafshon fermerlar uyushmasi hududida bo'lgan mehnat lageriga jo'natiladi.

U shu yerda oilasi bilan uchrashar ekan, bu so'nggi uchrashuv ekanini ko'ngli sezib, eziladi. Shundan keyingi hayoti esa sirga aylanadi. To hozirga qadar uning keyingi taqdiri nima kechgan, qayerga jo'natilgan, qachon vafot etgan, qabri qayerda, degan savollarga javob yo'q. Vodarig', necha yillar davomida ko'ksidan harorat bergan bir bo'lak G'ozg'on marmari uning qabriga nasib etmasa-ya! Bu voqealardan so'ng, uning farzandlari, ahli ayoli va yaqinlari ham malomat domida qoladi. Akasi Abdurasul ham "mulla" ayblovi bilan besh yillik jazoni Zangiotadagi mehnat lagerida o'taydi.

Qachonki, Stalin o'lganidan keyin qizi Hakima onasi Po'latoy bilan Samarqand viloyati jiroiya qo'mitasiga ariza yozib, Abdurahim Turdiyev jinoyatchi emas, mehnatkash inson bo'lganini dalillar asosida bayonlab, jinoyat ishini qayta ko'rishni so'raydi. Nihoyat, haqiqat qaror topadi. 1960-yil 27-28-aprel qarori insoni ish qayta o'rganilib, Abdurahim Turdiyev aybsiz deb topiladi va o'sha yilning 19-may kuni oqlanadi. Muhandis va zukko sangtarosh Abdurahim Turdiyevga qo'yilgan nohaq ayblovlar bekor qilingani "Qatag'on qurbonlari" kitobi-da ham o'z ifodasini topgan.

Suyundik MUSTAFO,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Husniddin Qirg'izboyev - 1901-yili Namangan shahrida tug'ilgan. "Jamiyati Islomiya" va "Nashri maori" tashkilotlarida kotiblik xizmatida bo'lgan. Hibsga olinganida aniq mashg'uloti bo'lmagan. Aholi orasida doimiy ravishda aksilingilobiy targ'ibot olib borgan, bu bilan sovet hukumati va uning tadbirlarini badnom qilishi, O'zbekistonni SSSRdan ajratib olish uchun kurashga chaqirganlikda ayblanib otuvga hukm qilingan, unga qarashli mulk, buyumlar musodara etilgan.

Mukarram Abdullayev - 1890-yili Voroshilov rayoni Xonabod qishlog'ida tug'ilgan. 1920-yili aksilingilobiy tashkilot "Sho'royi Islom"ga kirgan. Qamoqqa olinganda kolxoz a'zosi bo'lgan. Paxta terimi va paxta topshirish bo'yicha davlat rejasini buzganlikda, SSSRda ocharchilik to'g'risida ig'vo mish-mishlar tarqatganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 20-oktyabrdan hisoblangan.

Lutfilla Alimov - 1910-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. Oltiariq qishlog'ida yashagan. 1931-yildan 1935-yilgacha O'zkompartiya a'zosi, partiya hujjatlari tekshirilgan vaqtda partiyadan o'chirilgan. 1926-yildan "Milliy istiqlol" tashkiloti a'zosi sifatida aksilingilobiy targ'ibot bilan doimiy ravishda mashg'ul bo'lganlikda, sovet hokimiyatiga qarshi qaratilgan millatchilik fikrlari uchun O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 2-bandi bilan ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Hakimxo'ja Abbosxo'jayev - 1889-yili Namangan shahrida tug'ilgan. "Milliy ittihad" aksilingilobiy tashkilotning faol a'zosi bo'lgan. Hibsga olingunga qadar rayon matlubot jamiyati huzuridagi sut zavodida instruktor bo'lib ishlagan. Avvaldan sovet hokimiyatiga qarshi dushmanlik kayfiyatida bo'lib aholi orasida aksilingilobiy targ'ibot olib borganlikda, Oliy Sovetga saylovlar to'g'risida tuhmat tarqatganlikda, "Yashirin ovoz berish - o'zbeklarga qarshi kurashdir", deb aytganlikda ayblangan. U 3318-sonli ish bo'yicha otuvga hukm qilingan.

Abdulla Ahmedov - 1892-yili Jizzax shahrida tug'ilgan. Aksilingilobiy faoliyati uchun 1933-1934-yillari qamoqqa olingan. Hibsga olingunga qadar teatr xo'jaligi mudiri bo'lib ishlagan. "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi bo'lib aholi orasida millatchilik targ'iboti olib borganlikda, Stalin konstitutsiyasiga qarshi fikr bildirganlikda ayblanib 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 17-avgustdan hisoblangan.

Komiljon Alimov - 1903-yili Toshkentda tug'ilgan. 1910-yili tatar maktabida, keyinchalik rus-tuzem maktabida o'qigan. Oilaviy sharoiti og'irligi sabab o'qishni tashlab, 1915-yilgacha polkovnik Shonmov qo'lda xizmatda bo'lgan. Fevral inqilobiga pivo zavodida ishlagan, do'konda faroshlik qilgan. "To'dalar" nomli yoshlarning milliy sotsialistik guruhiga kirgan. 1919-yili Toshkent eski shahar oshpazlar soyuzining kotibi va raisi bo'lgan. 1921-yili Moskvada Sharq mamlakatlari kommunistik universitetida (KUVT) tahsil olgan. Moskvada o'qiyotgan o'zbekistonlik talabalar komsomol tashkilotiga rahbarlik qilgan. Turkiston Respublikasi, Toshkent, Samarqand oblastlari komsomol tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. 1924-yili Turkiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti matbuot bo'limi mudiri bo'lib ishlagan. O'sha yili Moskvadagi jurnalistika institutiga o'qishga qabul qilingan. Tahsilni tugatgach, O'zbekistondagi gazetalarda muharrirlik qila boshlagan. 1925-yil dekabrda Moskvada bo'lib o'tgan VKP(b) XIV sessiyaga, 1926-yili Butuno'zbek partiya tashkilotining 2-qurultoyiga, vakil etib saylangan. U O'zbekiston davlat nashriyotiga, Toshkent Eski shahar sovetiga, VKP(b) Markaziy Komiteti O'rta Osiyo byurosi matbuot bo'limi kollegiyasiga a'zo bo'lgan. 1926-yili bir vaqtning o'zida 2 ta gazeta va 3 ta jurnalga muharrirlik qilgan. U jurnalistika bo'yicha respublikada tanilgan nufuzli rahbar sifatida qadrlangan. Ammo aksilingilobiy harakatda ayblanib, SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil oktyabrdagi yig'ilishida otuvga hukm qilingan.

Azizbek Mahkamov,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori,

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi
(Davomi kelgusi sonida).



SUYUNCHI



IKKI "GULISTON"

yoxud IKKI KITOB BO'STONI

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan jamiyatimizda mutolaa madaniyatini shakllantirish va kitobxonlikni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida yurtimizda kitob nashr qilish va mutolaa jarayonlari yangi bosqichga chiqmoqda.

Kuni kecha Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida e'lon qilingan Yangi O'zbekistonning milliy armiyasi safidagi faol kitobxonalarni elektromobilalar bilan taqdirlash to'g'risidagi taklif misli ko'rilgan ma'rifiy qadam bo'ldi. Ochig'i, harbiy qism kutubxonasi boshqa mutolaa-xonalarga nisbatan doimo gavjum. Chunki qat'iy tartib-intizom barqaror bo'lgan muhitda askar chalg'ishi, bema'no va bema'ni ijtimoiy tarmoqlar



kun aylana bog'lanib, oltinday vaqtini juvonmarg qilishiga yo'l qo'yilmaydi. Asosiysi, har yili xizmatdan qaytadigan yigirma uch ming yigit agar "Alpomish"-u "O'tkan kunlar"ni, "O'zbekim" va "Vatanim manim"ni ong-u shuuringa jo qila olsa, bu yigirma uch ming ko'chada navqiron ziyoli, ma'rifat taratuvchi paydo bo'ldi deyavering. Ana shunda armiyaning nufuzi yanada yuksalib, askarlik safiga da'vogarlar safi kengayib boraveradi.

Shu qisqa davrda mamlakatimizning turli tumanlarida axborot-resurs markazlari soni oshdi, quvonarlisi, sarmoyador insonlar tashabbusi bilan shaxsiy kutubxonalar tashkil qilish an'ana tusini oldi. O'zi to'plagan kitob fondi hisobidan shaxsiy kutubxona ochish istagida bo'lgan fuqarolarga davlat tomonidan yordam berish hamda bir shlat birligi miqdorida kutubxona xodimini rag'batlantirish yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizdagi ikki mingdan ortiq xususiy nashriyot tomonidan joylardagi kutubxonalar yil davomida yangi adabiyotlar bilan boyitib borilmoqda. Muhtaram Prezidentimizning Oliy Majlisga hamda O'zbekiston xalqiga Murojaat-nomasida amaldagi yilda kutubxonalarga o'n million dona kitob yetkazib berish bo'yicha mas'ullarga topshiriq berilgani yurtimizda mutolaa maydoni yanada kengayib borishidan darak beradi.

Har bir qutlug' sana va bayramlar munosabati bilan yurtimizning barcha hududlarida ko'pdan ko'p inshootlar ishga tushirilishi, yangi xizmat maskanlari foydalanishga topshirilishi an'anaga aylangan. Xorazm viloyatida ham Yangi yil bayrami arafasida o'nlab yangi obyekt, turar joy, maishiy xizmat shoxobchalari, shifoxona va boshqa tadbirkorlik inshootlarining ramziy kalitlari egalari taqatantali topshirildi. Bizni mamnun etgani, yangi inshootlar orasida ikkita shaxsiy kutubxona faoliyat boshlagani bo'ldi.

Xonqa tumanidagi "Guliston" mahallasida ish boshlagan shaxsiy kutubxona tashabbuskori "Xonqa hayoti" gazetasi muharriri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Muhabbat Safoyeva bo'ldi. U o'z mablag'i hisobidan ikki qavatli kutubxona qurdi va umr bo'yi to'plagan ikki mingga yaqin kitoblarni mahalla ahli foydalanishi uchun taqdim etdi. Kutubxonaning ochilish tadbiriga vo'ha ijodkorlari quruq qo'l bilan kelmadi – sovg'a o'rnida kitoblarni keltirildi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi ham bu tashabbusni qo'llab, yangi kutubxonaga yetti yuz donaga yaqin kitob to'plami sovg'a qilgan, nur ustiga nur bo'ldi.

"Guliston" mahallasi – o'z nomiga munosib, nafaqat tumanda, balki viloyatda har tomonlama obod, aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha tizimlarga ega, tadbirkorlik taraqqiy topganidan ishsizlar deyarli qolmagan, turli atamadagi "daftar"larga nomlari kiritilgan fuqarolar soni kamligi bilan tanilgan maskan. Ko'chalari shahar ko'chalari bilan bellashgudek, shinam va chiroyli. Aholi tomorqalari va issiqxonalarida yil o'n ikki oy yetishtirilayotgan mahsulotlarning bir qismi xorijga ham chiqarilmoqda. Albatta, ishbilarmonlik va uddaburonlik o'z-o'zidan bo'lmagan. Mahalla ahli ishlaganga yarasha madaniy hordiq chiqarishni ham biladi, eng asosiysi, mutolaa ko'ngil qo'yg'an. Shu ma'noda, yangi kutubxonani barcha, ayniqsa, yoshlar xursandchilik bilan kutib oldi. Yangi kutubxonaning rasmiy ochilishi yakuniga yetmasdan turib, kitob olish uchun kelgan yoshlar navbatga qator tizilgani so'zimiz isbotidir.

Xonqaning Sarapoyon qishlog'idagi "Guliston" mahallasida boshlangan quvonch Yangibozor tumanidagi "Guliston" mahallasida davom etdi – shu mahallalik ijodkor, "Yangibozor ko'zgusi" gazetasi xodimasi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Shodiyabonu Sultonovaning shaxsiy kitob fondidan tarkib topgan uy kutubxonasi ochilishi bayram shukuhini yanada oshirdi. Viloyatning eng chekka qishloqlaridan birida tashkil qilingan mazkur kutubxonadan mingdan ortiq o'zbek va jahon adabiyoti namunalari o'rin olgan.

"Mahallamizda uch mingdan ortiq aholi bor, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Po'lat Matqurbonov. – Maskanimiz tuman markazidan uzoqda joylashgan. Shoiraning singlimiz tashabbusi bilan ochilgan shaxsiy kutubxona yoshlarimiz uchun ayni muddao bo'ldi. Mahalla faxriylari, tuman hokimligi bu tashabbusni qo'llab-quvvatlab, kitob fondi muntazam o'sib borishi uchun har tomonlama yordam berishga tayyor ekanini bildirdi. Prezidentimiz 2026-yilni – "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qildi. Mahalla rivoji uchun nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki ma'naviy o'sish ham asosiy omillardan biridir. Ma'nani yetuk insongina jamiyat yuksalishiga o'z ulushini qo'sha oladi. Mahallamizda ochilgan yangi kutubxona oldimizda turgan muhim vazifalarni ado etishda ma'naviy poydevor bo'ladi, deb ishonamiz".

Yangi kutubxonalarning ketma-ket ochilishida ishtirok etgan vohalik yana uch nafar ijodkor shu yilning o'zida shaxsiy kutubxona ochish rejasini ma'lum qilganini alohida ta'kidlab o'tmoq kerak.

Ro'zimboy HASAN

MULOHAZA

O'ZI USTOZ BO'LAR
USTOZ KO'RGANLAR

“– Meni tanimadingizmi, axir men falonchi blogerman!

– Uzi, qaysi nom bilan qanday mavzularda blog yuritasis?

– Barcha mavzuda. Internetda hamma “Haqqush” nomi bilan biladi meni.

– Shunaqami? Men bilgan ko'pgina blogerlar aniq bir yo'nalish bo'yicha faoliyat yuritadi.

– Ular menga o'xshab ko'p sohani tushunmaydi-da, shuning uchun bittasi bilan cheklanadi.

– Qaysi soha bo'yicha mutaxassis-siz?

– Oliy ma'lumotim yo'q. Maktabni bitirganman”.

Bugun ijtimoiy tarmoqlarda har qanday mavzuni yoritish mumkin, ammo jurnalistika – bu faqat axborot tarqatish emas, balki bilim, mas'uliyat va maktab demakdir. Ana shu maktabning bardavomligi esa ustozga bog'liq.

Yoshligimdan jurnalist bo'lishga qiziq-qanman. Uyda alohida xonada oynaga qarab, o'zimga o'zim xuddi televizorda biror ko'rsatuvni olib borayotgandek, matn tuzib, gapirib mashq qilardim. Jurnalist bo'lish orzuim borligini bir ustoz ijodkorga aytdim. Ustoz biroz o'g'a tolib turdi-da, “o'ylab ko'r, jurnalist bo'lsang, kosang oqarmaydi”, dedi. Shoshib uyga kelib kosaga qaradim. Kosa oq emas, oppoq! Hayron bo'lganman.

Jurnalist faoliyati davomida malaka va tajriba orttirishi tabiiy. O'rganish,



surishtiruv, tahlil, press-turlar orqali u ko'plab sohalarni o'zlashtiradi, fikr doirasi kengayadi. Ana shu jarayonda yoshlarga sharoit yaratish, to'g'ri yo'l ko'rsatish kattalarning muhim vazifalaridan biridir.

Bugun, ayniqsa, bosma nashr jurnalistikasida tanqidiy, tahliliy va mulohazali maqolalar yoza oladigan yoshlar soni kam. Yoshi ulug', tajribali jurnalistlarda bu muammo deyarli yo'q. Chunki ular katta maktabdan o'tgan,

katta ustozlar qo'lida tarbiya topgan. Biroq ustoz ko'rish – bir masala, maktab yaratib, shogird yetishtirish – mutlaqo boshqa masala. Buning uchun kasbiy bilimning o'zi yetarli emas. Odamiylik, bag'rikenglik, sabr va mas'uliyat ham zarur. Hazrat Navoiyning “Hunarni asrabon netgumdir oxir” degan so'zlari bejiz aytilmagan. Bu fikr – o'rganganingni kelajak avlodga o'rgat, degan ulug' da'vatdir. Chunki o'rgatilgan ilm, hunar, ustoz nomi va ijodi shogirdlar orqali bardavom. Yaxshi ustoz ko'p shogird tarbiyalaydi, yana ham muhimi – yaxshi shogird tarbiyalaydi.

Afsuski, bugun ayrim ustoz maqomidagi insonlar yosh hamkasblariga bilmaganini o'rgatish o'rniga, ulardan nuqson izlash bilan ovora. “Bilmaysan, tushunmaysan, qila olmaysan”, degan gaplar esa yoshlarda ishonchni sindiradi. Oqibatda ular “mening qo'lmdan kelmas ekan”, degan xulosaga keladi. Birovning xatosini topish oson. Ammo o'sha xatodan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatish haqiqiy ustozlikdir. Ustoz – shogird an'anasining uzluksizligi ham aynan shu yerda namoyon bo'ladi.

Shu bois, ustozlikning maqomi boshqa barcha maqomlardan baland. Chunki ustoz faqat bilim beruvchi emas, balki yo'l ko'rsatuvchi, ishonch uyg'otuvchi va kelajakni yaratuvchidir.

Bahrom BOYMURODOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

TILBILIM

VULKANDAN OTILIB
CHIQQAN VULQON

Vulqon so'zi ko'rinishidan ham tabiatidan sof o'zbekchadaiy tuyuladi. Bu so'z tilimizga o'z farzandiday singishib ketgan. Bu so'zga “O'zbek tilining izohli lug'ati”da shunday izoh berilgan:

“VULKAN (lotincha vulkanus – o't, olov) – qadimgi Rim mifologiyasida olov va temirchilik ma'budi nomi. Yer po'stidagi yoriqlar, kanallar orqali lava, issiq gaz, suv bug'lari va jins bo'laklarini chiqarib turadigan geologik tuzilma”.

O'ylab ko'ring-chi, agar bu so'zni o'zbeklashtirib, *vulqon* deb emas, balki aslidagiday *vulkan* deb qabul qilganimizda bu so'z tilimizga hozirgiday singishib ketarmidi? Menimcha, yo'q. Millatimizda Vulqon degan ismlar ham bor. Bu so'z *vulkan* shaklida qabul qilinganda u hech qachon ismga aylanmasdi.

Xo'sh, tabiatning katta hodisalaridan birini ifodalovchi *vulqon* so'zi tilimizga kirib kelmasdan avval bu hodisani bildiradigan so'z bizda bo'lganmi?

Hasan Ato Abushinyning “Turkiy qavmlar tarixi” kitobida vulqon *otqi* deb berilgan. Bu ham asosli. Chunki *vulqon* otilib chiqadi va ko'pincha *vulqon* so'zi bilan *otildi* so'zi tilda yonmayon yuradi.

Eshqobil SHUKUR

HAJV

She'ring zo'ri

(Saodatmand ustozlarimizning ulug'i “She'ring zo'ri – to'rt satr”, deb lutf'ur'g'on edilar. Kamina ham bu yo'sinda manglay qashqa, tirsak yag'ir bo'lmog'idan cho'chib turmadim, boz yo'nilmagan qalam birla tilpon tugmachalarini turtib, ushuni qoralagan joyim. Andak hadik ham yo'q emaski, inijq she'rxonlar to'rtligimizga burun jiyib, “to'rt tarafing qibla” deb, yo'llanma bervormasalar...)

MABODO

U seni samimiy yomon ko'radi,
Agar buloq bo'lsang, cho'ga buradi.
Mabodo, kul bo'lsang, sovurar ko'kka,
Mabodo, gul bo'lsang, molga beradi.

BOLA

Olam to'la sir, bola,
Anglaysan bir-bir, bola.
Mazmunli gapirma, qo'y,
Mazmunli jim tur, bola.

TAVBA

Xotin ko'paytirganlar bari
Oldin ko'ppayadi, keyin so'ppayadi.
Chunki xotin ko'paygan sari
Qaynona ham o'z-o'zidan ko'payadi.

XAVOTIR

Masjid eshigidan shoshib, betoqat
O'zini ichkari urdi bir nokas.
Insof bergani chin bo'lsin-u faqat
Kimdir kovushidan ayrilmasa bas.

CHORA


Pora olib tursang agar ora-chora,
Qo'ga tushsang, bo'lgay yana pora – chora.

JINOYATCHI

Ketidan qo'ysang ham yuzta izquvar
Yo'lidan qaytmaydi ering – qizquvar.

Turli-tuman yillarda turli tumanlarda bitilgan. Guvoh – abadiy tanqidchi J.G': Biyronov.

Sattor SUROB



Jadid
adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:

Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Akmal Jumamurodov

Adadi – 18 539
Shundan:

Kirilil yozuvida – 6 526
Lotin yozuvida – 12 013
Media kuzatuvchilar – 75 782
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manziliimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



“SHAHIDLAR XOTIRASI”
JAMOAT FONDI